2-bosqich Asosiy (60 daq.)	2.1. Mavzu bo'yicha materiallarni tarqatadi va tanishishni taklif etadi. Reja va kalit so'zlar mohiyatini tushuntiradi. 2.2. Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanishni aniqlash. 2.3. To'sinlarning mustahkamligini urinma kuchlanishga nisbatan tekshirish. 2.4. Egilishdagi potensial energiya. 2.5. Ekranga "Ko'ndalang egilishga doir masalalar" chiqariladi va u bilan tanishtiriladi 2.6. Mavzuni mohiyatini slaydlar orqali namoyish etiladi va sharhlab boriladi.	2.1. O'qiydilar 2.2. Tinglaydilar va savollarga javob beradilar 2.3. Tinglaydilar, jadval va sxemalarni o'z daftarlariga ko'chiradilar
3-bosqich Yakunlash (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida, yo'naltiruvchi savollar beradi. 3.2. Olingan bilimlarini mustahkamlash maqsadida og'zaki test o'tkaziladi. 3.3. Mustaqil ishlash ushuncha vazifalar beriladi.	3.1. Savollar berishadi. 3.2. Savollarga javob beradilar 3.3. Uyga berilgan vazifalarni yozib oladilar

**"MATERIALLAR QARSHILIGI" O'QUV MASHG'ULOTIDA TA'LIM
TEKNOLOGIYASI MODEL**

MA'RUZA MAVZU-8: EGILISH

Vaqt 2 soat	Talabalar soni 75 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i>	1. To'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagi 2. Egilgan o'qning taqribiy differensial tenglamasi 3. Egilishdagi potensial energiya
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i>	Talabalarda to'sinlarning egilishdagi deformatsiyalarini va statik aniqmas to'sinlar aniqlashni o'rganishni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - Mavzu bilan tanishtirish - Umumiy tushunchalar - To'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagi - Egilgan o'qning taqribiy differensial tenglamasi - Universal tenglama yordamida statik aniqmaslikni ochish	O'quv faoliyati natijalari, aniqlash. To'sinlarning egilishdagi deformatsiyalarini aniqlash. Statik aniqmas to'sinlar. Olgan tushunchalari bo'yicha talabalardagi ko'rikmalar shakllantiriladi.
<i>Ta'lim usullari</i>	<i>Ma'ruza, aqliy xujum, muammoli vaziyatlar</i>
<i>Ta'lim shakli</i>	<i>Guruhlarda ishlash</i>
<i>Ta'lim vositalari</i>	<i>Ma'ruza matni, texnik vositalar, plakatlar</i>
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	<i>Texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar, laboratoriya xonalari.</i>
<i>Monitoring va baxolash.</i>	<i>Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov kompyuterda test echish, laboratoriya o'tkazish</i>

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabalar
1-bosqich Kirish (10 daq.)	1.1. Ekranga egilishda «To'sin» (balka)lardagi To'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagi sxematik tasvirlanadi. 1.2. Mavzu e'lon qilinadi. Uning maqsadi tushuntiriladi va o'quv mashg'lotining rejasi bilan tanishtiriladi. 1.3. Mavzu bo'yicha tarqatilgan materiallar bilan mustaqil tanishilgandan so'ng talabalarda qanday savollar tug'ilganligini aniqlash.	1.1. Tinglaydilar, savollar beradilar, yozadilar.
2-bosqich Asosiy (60 daq.)	2.1. Mavzu bo'yicha materiallarni tarqatadi va tanishishni taklif etadi. Reja va kalit so'zlar mohiyatini tushuntiradi. 2.2. To'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagi. 2.3. Egilgan o'qning taqribiy differensial tenglamasi. 2.4. Ekranga "Egilishda to'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagini hisoblashga doir masalalar" chiqariladi va u bilan tanishtiriladi 2.5. Mavzuni mohiyatini slaydlar orqali namoyish etiladi va sharhlab boriladi.	2.1. O'qiydilar 2.2. Tinglaydilar va savollarga javob beradilar 2.3. Tinglaydilar, jadval va sxemalarni o'z daftarlariga ko'chiradilar
3-bosqich Yakunlash (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida, yo'naltiruvchi savollar beradi. 3.2. Olingan bilimlarini mustahkamlash maqsadida og'zaki test o'tkaziladi. 3.3. Mustaqil ishlash ushuncha vazifalar beriladi.	3.1. Savollar berishadi. 3.2. Savollarga javob beradilar 3.3. Uyga berilgan vazifalarni yozib oladilar

9- MA'RUZA	BURALISH
------------	----------

9.1. «Buralish» mavzusining texnologik modeli

O'quv soati – 2 soat	Talabalar soni: 40-50 ta
O'quv mashg'ulot shakli	Ma'ruza (ma'ruzali dars)
Ma'ruza rejasi	1. Buralish, uning hosil bo'lishi va ta'rifi 2. Burovchi moment uning ishorasi va epyuralari. 3. Buralishda brusning deformatsiyalanishi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: burovchi moment tushunchasi, buralishdagi kuchlanish va deformatsiyalarni aniqlash, ular orasidagi munosabatlarni bog'lash, burovchi moment epyuralarini qurish, buralishda g'ulachaning deformatsiyalanishini aniqlash,	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
• burovchi moment tushunchasini va uning paydo bulishin aytadi • buralishdagi kuchlanish va deformatsiyalarni aniqlashni tushuntiradi • burovchi moment epyuralarini qurishni urgataadi • buralishda g'ulachaning deformatsiyalanishini aniqlashni tushuntiradi	• burovchi momentni urganadi • buralishdagi kuchlanish va deformatsiyalarni aniqlashni biladi • burovchi moment epyuralarini qurishni urganadi • buralishda g'ulachaning deformatsiyalanishini aniqlashni urganadi • buralish burchagini biladi
O'qitish vositalari	O'UM, ma'ruza matni, rasmlar, plakatlari, doska
O'qitish usullari	Axborotli ma'ruza, blis-so'rov, texnika-insert
O'qitish shakllari	Frontal, kollektiv ish
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruxlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	og'zaki savollar, blis-so'rov

9.2. «Buralish» mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min)	1.21. O'quv mashg'uloti mavzusi, rejasi, pedagogning vazifasi va talabaning o'quv faoliyati natijalarini aytadi. 1.22. Baxolash mezonlari (1 – ilova). 1.23. Mavzuni jonlashtirish uchun «Blis-so'rov» savollarini beradi. Blis-so'rov usulida natijasiga ko'ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxizini amalga oshiradi (2-ilova). 1.24. Texnika-insert usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. (3-ilova).	Tinglaydilar. Yozib oladilar. Tinglaydilar. Yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.

2 -bosqich. Asosiy bo'lim (50 min)	2.1. Savol yuzasidan ma'ruza qiladi. 2.2.Ma'ruza rejasining hamma savollar bo'yicha tushuncha beradi. (4 - ilova). 2.2. Ma'ruzada berilgan savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi. (5 - ilova). 2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. 2.5. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.	Tinglaydilar. Javob beradilar Yozadilar. UMKga qaraydilar Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi. 3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. 3.3. Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi.	Savollar beradilar. UMKga qaraydilar. UMKga qaraydilar. Uy vazifalarini yozib oladilar

” Materiallar qarshiligi ” o’quv mashg’ulotida talim texnologiyasi modeli.

Mavzu 10: MURAKKAB QARSHILIK.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni 75 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi:</i>	1. QIYSHIQ EGILISH 2. NOMARKAZIY SIQILISH YOKI CHO'ZILISH. 3. SIQILGAN STERJENLARNING USTUVORLIGI
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i>	Talabalarda qiyshiq egilish, nomarkaziy siqilish yoki cho'zilish o'rganishni shakllantirish.
Pedagogik vazifalar: - Mavzu bilan tanishtirish - Murakkab qarshilik. - Qiyshiq egilish. - Siqilgan sterjenlarning ustuvorligi -Kritik kuchlanish.	O'quv faoliyati natijalari; Qiyshiq egilish. Nomarkaziy siqilish yoki cho'zilish. Siqilgan sterjenning kritik kuchini aniqlash uchun Eyler formulasi. Sterjen uchlarini mahkamlash usulining ta'siri. Olgan tushunchalari bo'yicha talabalardagi ko'nikmalar shakllantiriladi.
<i>Ta'lim usullari</i>	<i>Ma'ruza, aqliy xujum, muammoli vaziyatlar</i>
<i>Ta'lim shakli</i>	<i>Guruhlarda ishlash</i>
<i>Ta'lim vositalari</i>	<i>Ma'ruza matni, texnik vositalar, plakatlar</i>
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	<i>Texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar, laboratoriya xonalari.</i>
<i>Monitoring va baxolash.</i>	<i>Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov kompyuterda test echish, laboratoriya o'tkazish</i>

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabalar
1-bosqich Kirish (10 daq.)	1.1. Mavzu e'lon qilinadi. Uning maqsadi tushuntiriladi va o'quv mashg'otining rejasi bilan tanishtiriladi. 1.2. Mavzu bo'yicha tarqatilgan materiallar bilan mustaqil tanishilgandan so'ng talabalarda qanday savollar tug'ilganligini aniqlash.	1.1. Tinglaydilar, savollar beradilar, yozadilar.
2-bosqich Asosiy (60 daq.)	2.1. Mavzu bo'yicha materiallarni tarqatadi va tanishishni taklif etadi. Reja va kalit so'zlar mohiyatini tushuntiradi. 2.2. Qiyshiq egilish. 2.3. Nemarkaziy siqilish yoki cho'zilish. 2.4. Siqilgan sterjenlarning ustuvorligi 2.5. Mavzuni mohiyatini slaydlar orqali namoyish etiladi va sharhlab boriladi.	2.1. O'qiydilar 2.2. Tinglaydilar va savollarga javob beradilar 2.3. Tinglaydilar, jadval va sxemalarni o'z daftarlariga ko'chiradilar
3-bosqich Yakunlash (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida, yo'naltiruvchi savollar beradi. 3.2. Olingan bilimlarini mustahkamlash maqsadida og'zaki test o'tkaziladi. 3.3. Mustaqil ishlash ushuni vazifalar beriladi.	3.1. Savollar berishadi. 3.2. Savollarga javob beradilar 3.3. Uyga berilgan vazifalarni yozib oladilar

11- MA'RUZA	MUSTAHKAMLIK NAZARIYALARI
-------------	---------------------------

11.1. «Mustahkamlik nazariyalari» mavzusining texnologik modeli

<i>O'quv soati – 2 soat</i>	Talabalar soni: 40-50 ta
<i>O'quv mashg'ulot shakli</i>	Ma'ruza (ma'ruzali dars)
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Eng katta normal kuchlanishlar nazariyasi. (birinchi mustahkamlik nazariyasi) 2. Eng katta chiziqli deformatsiyalar nazariyasi. (ikkinchi mustahkamlik nazariyasi) 3. Eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasi. (uchinchi mustahkamlik nazariyasi) 4. Shakl o'zgarishi energiyasi nazariyasi. (to'rtinchi mustahkamlik nazariyasi) 5. Chegaraviy zo'riqqanlik holati nazariyasi. (beshinchi mustahkamlik nazariyasi).
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Kuchlanish va deformatsiyalarni aniqlash. Ular orasidagi munosabatlarni bog'lash. Ko'ndalang va buylama deformatsiyalar. Materiallar qarshiligi faning mustahkamlik va bikirlik shartlari. Statik aniqmaslik.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• Eng katta normal kuchlanishlar nazariyasini tushuntiradi • Eng katta chiziqli deformatsiyalar nazariyasini tushuntiradi • Eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasini tushuntiradi • Shakl o'zgarishi energiyasi nazariyasini tushuntiradi • Chegaraviy zo'riqqanlik holati nazariyasini tushuntiradi	• birinchi mustahkamlik nazariyasini eslab qoladi • ikkinchi mustahkamlik nazariyasini eslab qoladi • uchinchi mustahkamlik nazariyasini eslab qoladi • to'rtinchi mustahkamlik nazariyasini eslab qoladi • beshinchi mustahkamlik nazariyasini eslab qoladi
O'qitish vositalari	O'UM, ma'ruza matni, rasmlar, plakatlar, doska
O'qitish usullari	Axborotli ma'ruza, blis-so'rov, texnika-insert
O'qitish shakllari	Frontal, kollektiv ish
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruxlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	og'zaki savollar, blis-so'rov

11.2. «Mustahkamlik nazariyalari» mavzusining texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
------------------	----------------------------------	----------------------------------

1-bosqich. Mavzuga kirish (20 min)	1.25. O'quv mashg'uloti mavzusi, rejasi, pedagogning vazifasi va talabaning o'quv faoliyati natijalarini aytadi. 1.26. Baxolash mezonlari (1 – ilova). 1.27. Mavzuni jonlashtirish uchun «Blis-so'rov» savollarini beradi. Blis-so'rov usulida natijasiga ko'ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxizini amalga oshiradi (2-ilova). 1.28. Texnika-insert usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. (3-ilova).	Tinglaydilar. Yozib oladilar. Tinglaydilar. Yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2 -bosqich. Asosiy bo'lim (50 min)	2.1. Savol yuzasidan ma'ruza qiladi. 2.2.Ma'ruza rejasining hamma savollar bo'yicha tushuncha beradi. (4 - ilova). 2.2. Ma'ruzada berilgan savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi. (5 - ilova). 2.4.Tayanch iboralarga qaytiladi. 2.5. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.	Tinglaydilar. Javob beradilar Yozadilar. UMKga qaraydilar Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi. 3.2. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi. 3.3. Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi.	Savollar beradilar. UMKga qaraydilar. UMKga qaraydilar. Uy vazifalarini yozib oladilar

O'quv materiallari

Ma'ruza matni

1-Ma'ruza.

«Materiallar qarshiligi fani. Fan rivojlanishining qisqacha tarixi. Hisob sxemasi. Kuchlarni tasniflash»

Reja:

2. Materiallar qarshiligi fanining rivojlanish tarixi.
3. Asosiy tushunchalar va ta'riflar.
4. Qurilmalarning qismlarini hisob sxemalari.
5. Ichki va tashqi kuchlarni tasniflash.
6. Kesish usuli. Deformatsiya va surilishlar.

Tayanch iboralar: absolyut qattiq jism, deformatsiya, kuch, moment, kuch intensivligi, juft moment.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Matn.

1. Materiallar qarshiligi fanining rivojlanishi tarixi.

Turli injenerlik inshootlarini loyihalashda konstruksiyalar ayrim elementlarining ulchamlarini aniqlashga to'g'ri keladi. Bunda mustahkamlik, ustivorlik, uzoq muddatga chidamli hamda iqtisodiy jihatdan tejimli inshoot yaratish kabi marsadga qaratilgan hisoblashlar asosida hal qilinadi. Bunday masalalar mashina, samalyot, kema va boshqa sohalarda ularni loyihalashda ham paydo bo'ladi.

Ushbu masalalarning barchasi "Materiallar qarshiligi" fanida ko'rib chiqiladi. Materiallar qarshiligi kursida inshoot yoki mashinalarning asosiy elementi sifatida qaraladigan ayrim sterjenning mustahkamligi va bikrligi masalasiga asosiy e'tibor beriladi. Materiallar qarshiligi fanida o'z o'lchami va shaklini tashqi kuch ta'sirida o'zgartirishi mumkin bo'lgan jismlar o'rganiladi. Shuning uchun materiallar qarshiligida nazariy mexanikadan farqli ravishda jismning muvozanati haqidagi masaladan tashqari uning ayrim nuqtalarining ko'chishlariga doir masalalar ham yechiladi.

Materiallar qarshiligi fani o'z tarixiga ega. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlarni Galiley (1564-1642) o'tkazgan. U birinchi bo'lib tashqi kuchlar ta'siriga sterjenlarning qarshilik ko'rsata olishini baholash uchun analitik hisoblashlarni bajarish zarurligi haqidagi masalani qo'di. 1676 yili R.Guk (1635-1703) cho'zilishda kuch bilan uzayish orasidagi proportsional bog'lanishni aniqladi. Bu bog'lanish Guk qonuni nomi bilan mashhur bo'lib, materiallar qarshiligida juda muhim ahamiyatga ega.

Materiallar qarshiligi masalalarini analitik usullar bilan tekshirishni rivojlantirishda D.Bernulli (1700-1782) va L.Eyler (1707-1783) katta hissa qo'shganlar.

A.V.Gadolin (1828-1892), D.I.Juravskiy (1821-1891), X.S.Golovin (1844-1904), F.Yasinskiy (1856-1899), I.G.Bubnov (1872-1919) va boshqalarning ishlari ham katta ahamiyatga egadir.

XX asrda materiallar qarshiligi fanining rivojlanishida katta hissa qo'shgan o'zbek olimlari: M. T. O'razboyev, X. A. Raxmatulin, X. X. Usmonxodjayev, T. R. Rashidov,...



Ms

Bulardan boshqa Materiallar qarshiligi fani rivojiga o'z hissasini qo'shgan yana qaysi Sharq olimlarni bilasiz?



Sharq va O'rta Osiyo olimlarining Materiallar qarshiligi faniga qo'shgan hissalarini to'g'risida to'laroq ma'lumotga qanday ega bo'lish mumkin?

2. Asosiy tushunchalar va ta'riflar.

Har bir jismda unga q'yilgan kuchlar ta'siridan uning zarralarining o'zaro joylashuvi o'zgaradi, odatda, uning o'lchamlari, hajmi va shakli o'zgaradi, lekin bunda uning tarkibidagi moddalarning umumiy miqdori o'zgarmaganligi tufayli, uning massasi o'zgarmasdan qoladi. Bunday holda jism deformatsiyalangan deyiladi. *Deformatsiya deganda, odatda, jism o'lchamlari va shaklining o'zgarishiga olib keluvchi jism zarralari o'zaro joylashish holatining o'zgarishi tushuniladi.*

Deformatsiyani hosil qiluvchi kuchlarni asta-sekin kamaytirib, keyinchalik butunlay yo'qotilsa, jism o'zining dastlabki shaklini olishga intiladi. Deformatsiya butunlay yoki qisman yo'qoladi.

Jismlarning tashqi kuch ta'siri ostida deformatsiyalanib, kuch ta'siri yo'qotilgach, o'zining dastlabki holatiga qaytish xossasi *elastiklik* deyiladi. Kuch olinishi bilan deformatsiyaning yo'qolgan qismi *elastik* deformatsiya deb, qoladigan qismi esa *qoldiq deformatsiya* deb ataladi.

Qoldiq deformatsiyaning paydo bo'lishi jismning *plastikligi* bilan bog'liqdir. Agar tashqi kuch ta'siri olingach, deformatsiya tamomila yo'qolsa jism *absolyut elastik* deb ataladi.


“Materiallar qarshiligi” kursida quyidagi xossalarga ega bo'lgan ideal jism o'rganiladi, bu jism *yaxlit* (g'ovaksiz) va *bir jinsli* deb qaraladi. Bu cheksiz kichik hajmda istalgan nuqta atrofida olingan material xossalari nuqtaning o'rniga bog'liq emasligini bildiradi; jism *absolyut elastik* hisoblanadi.

Bazi masalalarda bu farazlardan chetga chiqish mumkin, bunday hollarda maxsus tushuntirish beriladi. Shuningdek, material *elastik izotrop* deb hisoblanadi, boshqacha qilib aytganda materialning *elastik* xossalari barcha yunalishlarda bir xil bo'ladi. Fizik-mexanik xossalari turli yunalishda har xil bo'lgan materiallar *anizotrop* materiallar deb ataladi. Yog'och, faner, armaturalangan tolali plastmassalar anizotrop materiallardir. Ma'lum yo'nalishlarda bir xil fizik-mexanik xossalarga ega bo'lgan materiallar *ortotrop* materiallar deyiladi. Prokat po'lat, sovuqlayin tortilgan sim va boshqalar shunday materiallar jumlasiga kiradi.

3. Qurilmalar qismlarining hisob sxemalari.

Materiallar qarshiligida oddiy shaklli jismlarning deformatsiyasi o'rganiladi. Amalda esa muhandislik qurilmalari murakkab shaklli bo'ladi, ularning alohida qismlarini sxemashtirib oddiy shaklli ko'rinishga keltiriladi. Bunday jismlar jumlasiga *g'o'la (brus)*, *plastinka* va *qobiqlar* kiradi.

G'o'la – uzunligi ancha katta bo'lgan jism bo'lib, uning o'qi va ko'ndalang kesimi *g'o'laning* geometrik tavsifi hisoblanadi. *G'o'la* o'qi-ko'ndalang kesimining og'irlik markazlarini tutashtiruvchi bo'ladi. (1-rasm, a,b) o'qi to'g'ri chiziqli *g'o'la sterjen* deyiladi.



Plastinka – qalinligi boshqa ikki o'lchamidan ancha kichik bo'lgan jism (1-rasm, c).


Qobiqlar – bir-biriga yaqin joylashgan ikki egri chiziqli sirt bilan cheklangan jism (1-rasm, d).



Qurilmalarni sxemashtirishda tayanchlar qanday rol uynaydi?

4. Ichki va tashqi kuchlarni tasniflash. Qo'yilish shartiga ko'ra kuchlar *hajmiy* va *sirt* kuchlariga bo'linadi. Hajmiy kuchlar jismning butun hajmiga tarqaladi va uning har bir nuqtasiga qo'yiladi. Hajmiy kuchlarga xususiy og'irlik, inertsia kuchlari, magnetizm kuchlari va boshqalar kiradi (N/m^3) da o'lchanadi.

Sirt kuchlar konstruktsiya sirtki uchastkalariga qo'yilgan bo'lib, ular *to'plangan* va *tarqoq* kuchlarga bo'linadi. Konstruktsiyaning juda kichik yuzasiga, ya'ni nuqtaga ta'sir qiladigan to'plangan kuchlar P (2-rasm, a) deyiladi. Ular Nyutonlarda (N) o'lchanadi.



2-rasm

Biror uzunlik yoki yuzaga uzluksiz qo'yilgan kuch (2-rasm, b, c) tarqoq kuchlardir, ularning asosiy ta'rifi uning jadalligi hisoblanadi. Birinchi holda kuch jadalligi q metrga nyuton (N/m) da, ikkinchi holda kuch jadalligi P kvadrat metrga nyutondir (N/m^2) da o'lchanadi.

Kuchlarni sxemalashtirganimizda to'plangan momentlar kuchlar jufti m paydo bo'ladi (2-rasm, d), ular metrga nyutonlar (Nm) da o'lchanadi.

Kuchlar vaqt bo'yicha o'zgarish tarziga ko'ra, *statik* va *dinamik* kuchlarga bo'linadi. Jismga asta-sekinlik bilan qo'yiladigan, jismni tebratmagan holda noldan eng yuqori qiymatigacha o'sib borib, keyin o'zgarmay qoladigan kuch *statik* kuch deyiladi.

Vaqt o'tgan sari o'zgaradigan, jismning tezlanishlari va tezlanishlariga sabab bo'ladigan kuchlar *dinamik* kuchlar deyiladi. Oniy qo'yilgan, zarbiy va siklik kuchlar dinamik kuchlardir.

Bundan tashqari, *doimiy* va *vaqtinchalik* kuchlar ham mavjud. Ko'prikning xususiy og'irligi doimiy kuchlarga, ko'prikan o'tayotgan poezd og'irligining ta'siri vaqtinchalik kuchlar jumlasiga kiradi.




Ms

Bulardan boshqa qanday kuchlarni bilasiz?

5. Kesish usuli. Deformatsiya va surilishlar.

Jismga ta'sir qiladigan tashqi kuchlar jismda unung dastlabki shaklini tiklashga intiluvchi ichki kuchlarni vujudga keltiradi. Bu ichki kuchlarning tartibi borliqning molekulyar tuzlishi nazariyasi bilan tushuntiriladi. Jismning deformatsiyanishi (shaklning o'zgarishi) materiallarning elementar zarralari oasidagi muvozanatning o'zgarishi natijasidir. Bu zarralarning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida jismda ichki kuchlar yoki qayishqoqlik kuchlari vujudga keladi. Ular kuclarga qarshilik ko'rsatadi. Konstruktsiya qismlarini hisoblashda uning istalgan kesimidagi ichki kuchlarni hisoblashni bilish lozim.

Ichki kuchlarni aniqlash uchun kesishlar usuli qo'llaniladi. Uning tarkibi quyidagicha (3-rasm a, b).



3-rasm

1. Muvozanatda turgan jism aa tekislik bilan xayolan ikki qismga bo'linadi.
2. Qismlardan biri (masalan, II qism) shartli ravishda tashlab yuboriladi.
3. Tashlab yuborilgan qismning qolgan qismiga ta'sirini ichki kuchlar bilan almashtiriladi.
4. qolgan qismi uchun tuzilgan statika tenglamalarining biridan ichki kuchlar topiladi.

Ichki qayishqoq kuchlarning jadalligiga *kuchlanish* deb aytiladi.

K nuqtadagi kuchlanishni o'lchash uchun (4-rasm) ΔR kuch to'g'ri keladigan ΔF yuzani ajratib olamiz. ΔR kuchning ΔF yuzaga nisbati o'rtacha kuchlanish S_m ni beradi:

$$S_m = \frac{\Delta R}{\Delta F} \quad (1)$$


Yuza o'lchamini nolga kamaytirib, K nuqtadagi to'liq kuchlanishni olamiz.

$$S_m = \lim_{\Delta A \rightarrow 0} \frac{\Delta R}{\Delta F} \quad (2)$$

Amaliy hisoblashlarda kuchlanish megopaskallar (MPa) da o'lchanadi, ya'ni:

$$1 \text{ MPa} = 10^6 \text{ Pa} = 10^6 \text{ N/m}^2;$$

$$1 \text{ MPa} = 0.1 \text{ kg} \cdot \text{kuch/mm}^2.$$



4-rasm

To'liq kuchlanish S ni tashkil etuvchilari: *normal* σ va *urinma* τ kuchlanishlarga ajratish mumkin (4-rasm).

To'liq kuchlanish

$$S = \sqrt{\sigma^2 + \tau^2}$$



Ms

Ixtiyoriy kesimdagi kuchlanishlar ham xuddi shu yo' bilan topiladimi?

Nazorat savollari

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Kuch deb nimaga aytiladi.
2. Tashqi va ichki kuchlar tushunchasi.
3. Kuchlanishga ta'rif bering.
4. O'zaro ta'sir kuchlari nima.
5. To'plangan kuch qanday quyiladi.
6. Normal va urinma kuchlanishlarning yunalishlarini ayting.

CHO‘ZILISH VA SIQILISH

Reja:

1. Kuchlanish va deformatsiyalar
2. Guk qonuni
3. Puasson koeffitsiyenti
4. Jism hajmining o‘zgarishi
5. Mustahkamlik va bikirlik shartlari

Tayanch iboralar: Normal va urinma kuchlanish, nisbiy buylama deformatsiya, nisbiy ko‘ndalang deformatsiya, statik aniqmaslik, bikirlik, elastiklik moduli, Puasson koeffitsenti.

Dars o‘tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma’ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarining davomati – 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: o‘tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o‘tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Belgilar:



Ms

- Muammoli savol



Mv

- Muammoli vaziyat



Mt

- Muammoli topshiriq



Mm

- Muammoli masala

2.1. Kuchlanish va deformatsiyalar.

Tekis kesimlar gipotezasiga ko‘ra, deformatsiyada sterjenning ko‘ndalang kesimlari bir-biriga parallel suriladi. Demak, ko‘ndalang kesimlarda bir tekis tarqalgan normal kuchlanishlar σ ta’sir qiladi. Normal kuchlanishlarni aniqlash uchun sterjenning kesib olingan chap qismi muvozanat shartini ko‘rib chiqamiz (2.1-rasm).

Kesimdagi ichki zo‘riqlashlarning teng ta’sir etuvchisi N statika tenglamalaridan topiladi:

$$N - P = 0 \quad \text{yoki} \quad N = P \quad (2.1)$$

bunda, $N = \int_F \sigma dF$.

$N = \sigma F$ ekanligini hisobga olib, sterjenning ko‘ndalang kesimlarida cho‘zilish va siqilishdagi normal kuchlanishlarni topamiz:

$$\sigma = \frac{N}{F} \quad \text{yoki} \quad \sigma = \frac{P}{F}, \quad (2.2)$$

bunda N -bo‘ylama kuch; F -ko‘ndalang kesim yuzasi.

Cho‘zilishda sterjen uzunligining uzayishi Δl mutlaq bo‘ylama uzayish deb ataladi:


$$\Delta l = l_1 - l, \quad (2.3)$$

bunda l -sterjenning dastlabki uzunligi,
 l_1 -sterjenning deformatsiyadan keyingi uzunligi.
 Siqilishda Δl mutlaq bo'ylama qisqarish deb ataladi.

Mutlaq uzayish yoki qisqarishning sterjenning dastlabki uzunligiga nisbati *nisbiy bo'ylama deformatsiya* deb ataladi va ε bilan belgilanadi:

$$\varepsilon = \frac{\Delta l}{l} \quad (2.4)$$

ε o'lchamsiz kattalikdir.



2.1-rasm

2.2. Guk qonuni.

Ko'pchilik materiallar uchun kichik uzayishlar chegarasida kuchlanish bilan deformatsiya orasida chiziqli bog'liqlik mavjud:

$$\sigma = E\varepsilon, \quad (2.5)$$

ya'ni normal kuchlanish nisbiy deformatsiyaga to'g'ri mutanosib. Bu bog'liqlik *Guk qonuni* deb ataladi

Mutanosiblik koeffisienti E bo'ylama elastiklik moduli yoki birinchi tur *elastiklik moduli* deyiladi. $E = tg\alpha$.

Bo'ylama elastiklik moduli E ning kattaligi (MPa) larda o'lchanadi va har xil materiallar uchun xar xil bo'ladi. Masalan:

po'lat	$(2,0 \div 2,1) \cdot 10^5$ MPa
mis	$(1,0) \cdot 10^5$ MPa
cho'yan	$(1,2 \div 1,6) \cdot 10^5$ MPa
alyuminiy	$(0,7 \div 0,8) \cdot 10^5$ MPa
beton	$(0,14 \div 0,20) \cdot 10^5$ MPa
yog'och	$(0,10 \div 0,12) \cdot 10^5$ MPa

Formula (2.5) ga σ va ε qiymatlarini qo'yib, boshqa ko'rinishdagi Guk qonunini olish mumkin:

$$\Delta l = \frac{Nl}{EF}. \quad (2.6)$$

EF cho'zilish-siqilishdagi sterjenning bikrligidir.

Guk qonuni mutanosiblik chegarasidan oshmaydigan kuchlanishlar uchungina o'rinli. Elastik materiallar, masalan po'lat, mis va boshqalar uchun Guk qonuniga ancha katta aniqlikda rioya qilinadi.

2.3. Puasson koeffitsiyenti.

Sterjen cho'zilganda uning ko'ndalang kesimi kichrayadi, siqilganda esa kattalashadi. Sterjenning mutlaq ko'ndalang deformatsiyasi:

$$\Delta b = b - b_1 \quad (2.7)$$

Nisbiy ko'ndalang deformatsiya:

$$\varepsilon_t = \frac{\Delta b}{b}. \quad (2.8)$$

Nisbiy ko'ndalang deformatsiyaning nisbiy bo'ylama deformatsiyaga nisbati Puasson koeffisienti yoki ko'ndalang deformatsiya koeffisienti ν deb ataladi va quyidagiga teng boladi:

$$\nu = \frac{\varepsilon_t}{\varepsilon} \quad (2.9)$$

Bu koeffisient bo'ylama elastiklik moduli bilan birga materialning qayishqoqlik xossalarini ifodalaydi. Har xil materiallar uchun Puasson koeffisientining kattaligi 0 dan 0,5 oralig'ida bo'ladi va tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

Puasson koeffisientining qiymatlari:

po'lat uchun	0,25 ÷ 0,30	cho'yan uchun	0,23 ÷ 0,27
alyuminiy uchun	0,32 ÷ 0,36	qo'rg'oshin uchun	0,45
kauchuk uchun	0,47	parafin uchun	0,5

2.4. Jism hajmining o'zgarishi.

Cho'zilish yoki siqilishda jismning hajmi o'zgaradi. Kvadrat ko'ndalang kesimli sterjenning dastlabki hajmi:

$$V = F \cdot l = b^2 l.$$

Deformatsiyadan keyin uning uzunligi va yuzasi:

$$l_1 = l + \Delta l = l(1 + \varepsilon),$$

$$F_1 = (b - \Delta b)^2 (1 - \varepsilon \nu)^2.$$

Deformatsiyalangan jism hajmi:

$$V_1 = b^2 (1 - \varepsilon \nu)^2 l(1 + \varepsilon) = V(1 - 2\varepsilon \nu + \varepsilon^2 \nu^2 + \varepsilon - 2\varepsilon^2 \nu + \varepsilon^3 \nu^2).$$

$\varepsilon^2, \varepsilon^3$ ni juda kichik deb uni hisobga olmay quyidagini hosil qilamiz:

$$V_1 = V[1 + \varepsilon(1 - 2\nu)].$$

Hajmning nisbiy o'zgarishi:

$$\Theta = \frac{V_1 - V}{V} = \varepsilon(1 - 2\nu). \quad (2.10)$$

Konstruksion materiallar uchun ko'ndalang kesim koeffisienti $\nu < 0$.

2.5. Mustahkamlik va bikirlik shartlari.

Konstruksiya qismlarining ish me'yorini ta'minlash uchun haqiqiy ish kuchlanishlari ruxsat etilgan kuchlanishlardan katta bo'lmasligi kerak:

$$\sigma_{\max} \leq \sigma \quad (2.11)$$

Cho'zilish va siqilishdagi mustahkamlik shartlari:

$$\sigma_{\max} = \frac{N}{F} \leq \sigma. \quad (2.12)$$

Bu mustahkamlik shartlaridan foydalanib, quyidagi uch turdagi masalalar yechiladi:

- a) Tekshirish hisobi. Sterjenda kesimning o'lchamlari va yukdagi kuchlanish aniqlanadi hamda ruxsat etilgan kuchlanish bilan qiyoslanadi: $\sigma_{\max} = \frac{N}{F}$

Bunda haqiqiy kuchlanishning ruxsat etilgan kuchlanishdan farqi ± 5 foiz bo'lishi kerak.

- b) Loyihalash hisobi. Og'irlik ruxsat etilgan kuchlanishning ma'lum qiymatlarida sterjen ko'ndalang kesimining zarur yuzasi aniqlanadi: $F \geq \frac{N}{\sigma}$

- c) Ruxsat etilgan og'irlikni aniqlash. Sterjen kesimlarining ma'lum o'lchamlari va ruxsat

etilgan kuchlanish bo'yicha og'irlik aniqlanadi: $N \leq \sigma \cdot F$

**Ms**

Nima uchun kuchlanish ruxsat etilgan kuchlanishdan kichin bulishi kerak?

**Mv**

Ruxsat etilgan kuchlanishda farqni ± 5 deb olish kerakmi?

Nazorat savollari

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Normal va urinma kuchlanishlarni tushuntirib bering
2. Kuchlanish va deformatsiyalar orasidagi bog'lanish
3. Buylama uzayish va qisqarish
4. Ruxsat etilgan kuchlanish
5. Teng ta'sir etuvchi kuch
6. Zo'riqish deb nimaga aytiladi
7. Jism muvozanatlashuvi nima
8. Tashqi kuchlarning bajargan ishi nima
9. Potensial energiyaning intinsivligi nima
10. Hajm o'zgarishi potensial energiyasi deb nimaga aytiladi

3-Ma'ruza.

CHO'ZILISH VA SIQILISHNING STATIK ANIQMAS HOLLARI

Reja:

1. Statik aniqmaslik.
2. Statik aniqmas masalalar

Adabiyotlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6.

Tayanch iboralar: Normal va urinma kuchlanish, tayanch reaksiyasi, nisbiy bo'ylama deformatsiya, statik aniqmaslik, bikrlilik, elastiklik moduli, fizik tenglama, buylama kuch

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Matn.

3.3. Statik aniqmas masalalar.

Cho'zilish va siqilishga hisoblanadigan muhandislik konstruksiyalari statik aniq va statik aniqmas tizimlarga bo'linadi.

Ikki sterjendan iborat bo'lgan va kuch ta'sir ettirilgan (1-rasm) sharnirli-sterjenli konstruksiyani ko'rib chiqamiz. Bu masalada sterjenni cho'zadigan noma'lum zo'riqishlar R_1 va R_2 muvozanat tenglamalaridan topiladi.

Tashqi og'irlik vujudga keltiradigan noma'lum ichki zo'riqishlar muvozanatlik tenglamalaridan topiladigan va sharnirli-sterjenli konstruksiyalar *statik aniq tizimlar* deb ataladi.


Uchta sharnirli-sterjenli konstruksiyalar uchun masalani echish murakkablashadi, chunki ularda noma'lum zo'riqishlar R_1, R_2 va R_3 ni aniqlab bo'lmaydi. Tashqi og'irlik vujudga keltiradigan ma'lum ichki zo'riqishlar soni tuzilgan muvozanat tenglamalari sonidan ko'p bo'lgan konstruksiyalar *statik aniqmas* tizimlar deb ataladi.



Ms

Statik aniqmaslik nima?

Bunday masalalarni tizim deformatsiyalarining qo'shilishi shartlaridan kelib chiqib eychish uchun qo'shimcha tenglamalar tuziladi. Zarur qo'shimcha tenglamalar soni masalaning statik aniqmaslik darajasini ifodalaydi.




1-rasm

Statik aniqmas masalalarni yechish usuli qo'yidagilardan iborat:

1. Tizimda no'malum ichki zo'riqishlar (reaksiyalar) aniqlanadi.
2. Statika tenglamalari tuziladi.
3. Tizim deformatsiyalarining qo'shilishi shartidan qo'shimcha tenglamalar tuziladi.
4. Qo'shimcha tenglamalarda deformatsiyalar Guk qonuni bo'yicha ifodalanadi.
5. Olingan tenglamalarni birgalikda eychib tizimning no'malum ichki zo'riqishlari topiladi.

1-Namuna

O'zgarmas ko'ndalang yuzasi F va uzunligi l bo'lgan g'o'lacha ikki uchidan qisilgan va P kuch bilan yuklangan (2-rasm).



2-rasm

G'o'lachaning yuqori va pastki qismlaridagi kuchlanishlarni aniqlang.

Yechish. P kuch ta'sirida g'o'lachaning yuqori qismi cho'ziladi, pastki qismi siqiladi. Biriktirilgan joylarda esa noma'lum reaksiya kuchlari R_1 va R_2 paydo bo'ladi. Bu reaksiyalarni topish uchun faqat bitta tenglama berilgan:

$$\sum y = 0; \quad R_1 + R_2 - P = 0 \quad (a)$$

Bu masala statik aniqmas masalalardan biri hisoblanadi, chunki uni yechish uchun bitta qo'shimcha tenglama tuziladi. Uni olish uchun g'o'lacha deformatsiyasi ko'rib chiqiladi.

G'o'lachaning uchlari mahkamlab qo'yilganligi va uzunligi uzaymaganligi uchun g'o'lacha yuqori qismining uzayishi pastki qismining qisqarishiga teng, ya'ni:

$$\Delta a = \Delta b$$

yoki

$$\frac{R_1 a}{EF} = \frac{R_2 b}{EF}.$$

G'ochaning bikirligini qisqartirgandan so'ng:

$$R_1 a = R_2 b, \quad (b)$$

va uni tenglama (a) ga qo'yamiz:

$$(P - R_2)a = R_2 b.$$

Bundan:

$$R_1 = \frac{Pb}{a+b} \quad \text{va} \quad R_2 = \frac{Pa}{a+b} \quad (d)$$


G'ochaning yuqori qismida bo'ylama kuch $N_1 = R_1$ pastki qismida $N_2 = R_2$ ta'sir qiladi.

Agar $a = b$ bo'lsa, u holda $R_1 = R_2 = \frac{P}{2}$. G'och har qaysi qismidagi kuchlanish:

$$\sigma_1 = \frac{N_1}{F} \quad \text{va} \quad \sigma_2 = \frac{N_2}{F}. \quad (e)$$

2 -Namuna

Sharnirli-sterjenli konstruktsiya ko'ndalang kesim yuzasi F bo'lgan ikki sterjendan va ularga osilgan biki g'och (C nuqtada sharnirli biriktirilgan) dan iborat. (3-rasm). G'ochga P kuch qo'yilgandan so'ng sterjenlardagi kuchlanishlarni aniqlang.



3-rasm

Yechish. P kuch ta'sirida sterjenlar cho'ziladi va ularda noma'lum reaksiya kuchlari, R_1 va R_2 , sharnirli birikmada esa reaksiya R_c vujudga keladi. G'ochga C nuqtaga nisbatan buriladi, chunki sterjenlar tegishli Δa va Δb kattaliklarga uzayadi.

Ushbu masala uchun statikada ikkita muvozanat tenglamasi berilgan:

$$\sum y = 0; \quad R_c + R_1 + R_2 - P = 0 \quad (a)$$

$$\sum M_c = 0; \quad P2a - R_1 a - R_2 4a = 0$$

yoki

$$2P - R_1 - 4R_2 = 0 \quad (b)$$

Bu masala statik aniqmas masala. Uchburchaklar CHH_1 va CKK_1 o'xshashligidan qo'shimcha tenglamani olamiz:

$$\frac{\Delta b}{4a} = \frac{\Delta a}{a}$$

yoki

$$\Delta b = 4\Delta a$$

(d)

Sterjenning uzayishini Guk qonuni bo'yicha ifodalar bilan almashtiramiz:

$$\frac{R_2 2a}{EF} = 4 \frac{R_1 a}{EF}.$$

Qisqartirilgandan so'ng $R_2 = 2R_1$ ni olamiz, uni statika tenglamasi (b) ga qo'yamiz:

$$2P - R_1 - 8R_1 = 0.$$

Bundan:

$$R_1 = \frac{2P}{9} \quad \text{va} \quad R_2 = \frac{4P}{9}.$$

Birinchi va ikkinchi sterjenlarda ta'sir qiladigan bo'ylama kuchlar:

$$N_1 = R_1 \quad \text{va} \quad N_2 = R_2$$

Sterjenlardagi kuchlanishlar quyidagicha topiladi:

$$\sigma_1 = \frac{N_1}{F} \quad \text{va} \quad \sigma_2 = \frac{N_2}{F}. \quad (e)$$

Nazorat savollari.

1. Normal va urinma kuchlanishlarni tushuntirib bering
2. Kuchlanish va deformatsiyalar orasidagi bog'lanish
3. Buylama uzayish va qisqarish
4. Ruxsat etilgan kuchlanish
5. Teng ta'sir etuvchi kuch
6. Zo'riqish deb nimaga aytiladi
7. Jism muvozanatlashuvi nima
8. Statik aniqmaslik darajasi qanday aniqlanadi
9. Qushimcha tenglama qanday tuziladi
10. Statikaning muvozanat tenglamalarini ayting

4 - Ma'ruza.

TEKIS KESIMLARNING GEOMETRIK XARAKTERISTIKALARI

Reja:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Kesimning statik momenti

Tayanch iboralar: Statik moment, kesim qutb inersiya momenti, kesim markaziy inersiya momenti, yuzacha

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimini baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Belgilar:



- Muammoli savol



- Muammoli vaziyat



- Muammoli topshiriq



- Muammoli masala

Matn.

3.3. Tekis kesimlarning geometrik xarakteristikalarini.


Bizga ma'lumki sterjen cho'ziishi yoki siqilishida uning ko'ndalang kesimida kuchlanish hosil bo'ladi. Bu esa deformatsiya potensial energiyasini keltirib chiqaradi, ya'ni potential energiya sterjen ko'ndalang kesimiga bog'liq bo'ladi.

Yuza kundalang kesim xarakteristikalaridan bog'liq. Agar ko'ndalang kesimni bir qancha elementar dF yuzachalardan iborat deb qarash ushbu kesim yuzasi

$$F = \int dF \quad (1)$$

bo'ladi.

Egish, buralish yoki murakkab qarshiliklarni hisoblashda hisob ishlarida kesim geometric xarakteristikalarining murakkabligi muhim rol uynaydi. Bular quyidagilar, statik moment kesim qutb inersiya momenti, kesim markaziy inersiya momentlari hisoblanadi. Bu hollarda (1) tenglama integrali ostidagi dF elementar yuzacha o'rniga koordinatalar y , z , ρ lar ishtirok etadi. Bundan ko'rinadiki kesim geometrik xarakteristikasi nafaqat tuzilishidan balkim o'qlarning joylashishidan ham bog'liq bo'ladi (1-rasm).



(1-rasm)

2. Kesimning statik momenti.


Kesimning statik momenti deb bir nechta elementar yuzachalar dF larning umumiy yig'indisi F bilan ular joylashgan o'qqacha bo'lgan masofasi ko'paytmasiga aytiladi.

$$S_z = \int_F y dF, \quad S_y = \int_F z dF \quad (2)$$

Statik moment birligi sm^3 ; m^3 larda ifodalanadi.

Murakkab kesimlarning bir o'qqa nisbatan statik momenti deb shu o'qqa nisbatan barcha qismlari static momentlarining yig'indisiga aytiladi.

Bir-biriga parallel joylashgan z va z_1 o'qlarga nisbatan statik momentlar bog'liqligini qarab chiqamiz (2-rasm)



(2) formulaga binoan o'qlarga nisbatan statik moment quyidagicha bo'ladi.

$$S_z = \int_F y dF, \quad S_{z_1} = \int_F y_1 dF;$$

Bu yerda $y_1 = y - a$ bo'lgani uchun


$$S_{z_1} = \int_F (y - a) dF = \int_F y dF - a \int_F dF = S_z - aF; \quad (3)$$

Xuddi shunday

$$S_{y_1} = \int_F (y-b) dF = \int_F y dF - b \int_F dF = S_y - bF; \quad (4)$$

2-rasm

Endi z_1 va y_1 o'qlarning joylashishini aniqlaymiz (3-rasm). Buning uchun (3) va (4) ifodalar statik momentlarini nolga tenglaymiz.



(3-rasm)

$$S_{z_1} = S_z - y_c F = 0; \quad S_{y_1} = S_y - z_c F = 0 \quad \text{bundan}$$


$$y_c = \frac{S_z}{F}; \quad z_c = \frac{S_y}{F}. \quad (5)$$

y va z o'qlarining kesishish nuqtasiga nisbatan C nuqtaning og'irlik markazi deyiladi. Og'irlik markazi orqali o'tgan o'qqa markaziy o'q deyiladi.

Kesim og'irlik markazi o'tgan ixtiyoriy o'qqa nisbatan statik momenti nolga teng.

(5) formula kesim og'irlik markazi koordinatalarini aniqlashda qullaniladi.

Kesim og'irlik markazi aniq bo'lsa, kesim statik momentlari ixtiyoriy y va z o'qlariga nisbatan quyidagicha bo'ladi. (4-rasm).




(4-rasm)

$$S_c = y_c F; \quad S_c = z_c F. \quad (6)$$

Og'irlik markazlari 5-rasmda tasvirlangan masalani qarab chiqamiz. Buning uchun shaklni bulaklarga ajratamiz.

Birinchi shakl yuzasi $F_1 = 2a^2$, Ikkinchi shakl yuzasi $F_2 = a^2$ bo'lsin. Har bir kesim og'irligi markazlari C_1 va C_2 bo'lsin. y_1 va z_1 o'qlarni joylashishini aniqlash uchun z o'qiga nisbatan statik momentni aniqlaymiz.

$S_z = S_z^{F_1} + S_z^{F_2}$ $S_z^{F_1}$ va $S_z^{F_2}$ yuzasi F_1 va F_2 bo'lgan har bir bo'lakning z o'qiga nisbatan statik momenti.



$$S_z^{F_1} = y_{C_1} F = a 2a^2 = 2a^3,$$

$$S_z^{F_2} = y_{C_2} F_2 = \frac{a}{2} a^2 = \frac{a^3}{2}$$

$$\text{U holda } S_z = 2a^3 + \frac{a^3}{2} = \frac{5}{2} a^3$$

Bundan

$$y_c = \frac{S_z}{F} = \frac{\frac{5}{2} a^3}{3a^2} = \frac{5}{6} a.$$

$$z_c = \frac{S_y}{F} = \frac{\frac{5}{2} a^3}{3a^2} = \frac{5}{6} a.$$

Bu yerda $F = F_1 + F_2$

Yuqoridagilardan kelib chiqib murakkab kesimlar og'irlik markazini aniqlash uchun qo'yidagi ketma-ketliklarni bajarilishini yozamiz:

1. Murakkab kesimni oddiy shakldagi bulaklarga ajratish;
2. Har bir shaklning yuzi va og'irlik markazi aniqlanadi;
3. y va z ixtiyoriy koordinata o'qlari kiritiladi;
4. $S_z = y_C F$; $S_y = z_C F$ formulalardan S_y^i va S_z^i larning static momentlari y va z o'qlarga nisbatan topiladi;
5. $y_C = S_z / F$, $z_C = S_y / F$ formulalardan umumiy kesim og'irlik markazi aniqlanadi.

5 - Ma'ruza.

ZO'RIQQAN HOLAT DIAGRAMMASI

Reja:

1. Chiziqli zo'riqish holatida qiya yuzachalar bo'yicha kuchlanishlar.
2. Tekis kuchlanganlik holatida qiya tekisliklar bo'yicha kuchlanishlar.
3. Hajmiy zo'riqqan holatdagi qiya yuzachalar bo'yicha kuchlanishlar.
4. Hajmiy va tekis zo'riqish holatidagi deformatsiyalar va kuchlanishlar orasidagi bog'liqlik.

Tayanch iboralar: Zo'riqish holati, qiya kesimlardagi kuchlanishlar, deformatsiya, bosh yuza, tekis zo'riqish, qiya tekislik, qiya yuza, hajmiy zo'riqish, bosh kuchlanish.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Belgilar:



Ms

- Muammoli savol



Mv

- Muammoli vaziyat



Mt

- Muammoli topshiriq



Mm

- Muammoli masala


Matn.

3.1. Chiziqli zo'riqish holatida qiya yuzachalar bo'yicha kuchlanishlar.

Cho'zilish va siqilishda sterjenning mustahkamligini baholash uchun faqat ko'ndalang kesim tekisligidagi kuchlanishlar emas, balki istalgan qiya tekisliklardagi kuchlanishlarni ham bilish kerak. F kuch cho'zayotgan sterjenning qiya kesimi bo'yicha kuchlanishlarni aniqlaymiz: (3.1-rasm, a) Unga o'tkazilgan normal sterjen o'qi yo'nalishi bilan α burchakni tashkil qiladi.

Ko'ndalang kesim mk dagi normal kuchlanish:

$$\sigma = \frac{P}{F}. \quad (3.1)$$



3.1-rasm

Qiya tekislik mn da kuchlanish σ ga parallel bo'lgan tekis taqsimlangan to'liq kuchlanish S_α lar (3.1-rasm, b) ta'sir qiladi:

$$S_\alpha = \frac{P}{F_\alpha} . \quad (3.2)$$

Qiya tekislik yuzasi $F_\alpha = \frac{F}{\cos \alpha}$ bo'lgani uchun:

$$S_\alpha = \frac{P \cos \alpha}{F} = \sigma \cdot \cos \alpha . \quad (3.3)$$

Biror nuqtadagi to'liq normal yo'nalishga va qiya tekisligiga proeksiyalab (3.1-rasm, c), shu kesimdagi normal va urinma kuchlanishlarni aniqlash formulalarini hosil qilamiz:

$$\sigma_\alpha = S_\alpha \cos \alpha = \sigma \cos^2 \alpha \quad (3.4)$$

$$\tau_\alpha = S_\alpha \sin \alpha = \sigma \cos \alpha \cdot \sin \alpha = \frac{\sigma}{2} \sin 2\alpha . \quad (3.5)$$

Kuchlanishlar qiymati α burchakning vaziyatiga bog'liq.

Eng katta normal kuchlanishlar sterjenning ko'ndalang kesimida ta'sir qiladi: $\alpha = 0$ da kuchlanish $\sigma_{\alpha \max} = \sigma$, urinma kuchlanish $\tau_\alpha = 0$. Agar $\alpha = 90^\circ$ bo'lsa, kuchlanishlar $\sigma_\alpha = 0$ va $\tau_\alpha = 0$, ya'ni sterjenning bo'ylama kesimlarida normal va urinma kuchlanishlar bo'lmaydi. Asosiy kuchlanishlar cho'zilishda $\sigma_1 = \sigma$, $\sigma_2 = 0$ va $\sigma_3 = 0$, siqilishda $\sigma_1 = 0$, $\sigma_2 = 0$ va $\sigma_3 = -\sigma$.

Urinma kuchlanishlar sterjen o'qiga $\alpha = 45^\circ$ burchak ostida yotgan qiya tekislikda eng katta qiymatga erishadi. $\sin 2\alpha = 1$ bo'lgani uchun:

$$\tau_{\alpha \max} = \frac{\sigma}{2} . \quad (3.6)$$

Agar normal kuchlanish cho'zuvchi bo'lsa musbat, siquvchi bo'lsa manfiy bo'ladi.

Chiziqli zo'riqish holatidagi elementning ikki o'zaro perpendikulyar yuzachalarida normal va urinma kuchlanishlarni topamiz (3.2-rasm).

$\sigma_1 = \sigma$ ni hisobga olib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\sigma_\alpha = \sigma_1 \cos^2 \alpha \text{ va } \tau_\alpha = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2\alpha \quad (3.7) \text{ va } (3.8)$$


$\beta = \alpha + 90^\circ$ burchak ostida qiya yotgan yuzachada quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\sigma_\beta = \sigma_1 \cos^2 \beta = \sigma_1 \cos^2 (\alpha + 90^\circ) = \sigma_1 \sin^2 \alpha \quad (3.9)$$

$$\tau_\beta = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2\beta = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2(\alpha + 90^\circ) = -\frac{\sigma_1}{2} \sin 2\alpha \quad (3.10)$$

Normal kuchlanishlar formulalarini qo'shib, ushbuni topamiz:

$$\sigma_{\alpha} + \sigma_{\beta} = \sigma_1 \cos^2 \alpha + \sigma_1 \sin^2 \alpha = \sigma_1 \quad (3.11)$$



3.2-rasm

ya'ni ikki o'zaro perpendikulyar yuzachalarda normal kuchlanishlar yig'indisi o'zgarmas va asosiy kuchlanishga teng.

Urinma kuchlanishlar formulalarini qiyoslasak:

$$\tau_{\alpha} = -\tau_{\beta} \quad (3.12)$$

ya'ni ikki o'zaro perpendikulyar yuzachalarda urinma kuchlanishlar qiymati jihatidan teng va ishora jihatidan qarama-qarshiligi kelib chiqadi. Bu xossa *kuchlanishlarning juftlik qonunu* deb ataladi.

3.2. Tekis kuchlanganlik holatida qiya tekisliklar bo'yicha kuchlanishlar.

Tekis kuchlanganlik holatida elementning ikki o'zaro perpendikulyar (tik) yuzachalari bo'yicha asosiy kuchlanishlar ta'sir qiladi. Bu kuchlanganlik holatining quyidagi turlari mavjud:

a) ikki o'zaro perpendikulyar yo'nalishlar bo'yicha ikki o'qli cho'zilish:

$$\sigma_1 > 0, \quad \sigma_2 > 0 \text{ va } \sigma_3 = 0;$$

b) bir yo'nalishda cho'zilishda va bir yo'nalishda siqilishda ikki o'qli aralash kuchlanganlik holati: $\sigma_1 > 0, \quad \sigma_2 = 0 \text{ va } \sigma_3 < 0;$

v) ikki o'zaro perpendikulyar yo'nalishda ikki o'qli siqilish: $\sigma_1 = 0, \quad \sigma_2 < 0 \text{ va } \sigma_3 < 0;$

Endi tekis kuchlanganlik holatidagi material elementini ko'rib chiqamiz (3.3-rasm, a). Elementning yon yoqlari bo'yicha musbat asosiy kuchlanishlar: σ_1 va σ_2 ta'sir qiladi, bunda $\sigma_1 > \sigma_2$. Qiya yuzachadagi kuchlanishlarni aniqlaymiz: bu yuzachaga o'tkazilgan normal algebraik jihatdan eng katta asosiy kuchlanish σ_1 yo'nalishida α burchak hosil qiladi. Musbat burchak α soat miliga teskari hisoblanadi.

Kuchlanishlar σ_1 va σ_2 ta'sirida qiya yuzachada normal σ_{α} va urinma τ_{α} kuchlanishlar vujudga keladi. Kuchlar ta'sirining mustaqillik qoidasidan foydalanib, $\alpha_1 = \alpha + 90^0$ ekanligini hisobga olib, formulalar (3.4) va (3.5) bo'yicha shu kuchlanishlar qiymatini topamiz:

Normal kuchlanish:

$$\begin{aligned} \sigma_{\alpha} &= \sigma'_{\alpha} + \sigma''_{\alpha} = \sigma_1 \cos^2 \alpha + \sigma_2 \cos^2 \alpha_1 = \sigma_1 \cos^2 \alpha + \\ &+ \sigma_2 \cos^2 (\alpha + 90^0) = \sigma_1 \cos^2 \alpha + \sigma_2 \sin^2 \alpha. \end{aligned} \quad (3.13)$$

Urinma kuchlanish:


$$\begin{aligned}\tau_{\alpha} &= \tau'_{\alpha} + \tau''_{\alpha} = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2\alpha + \frac{\sigma_2}{2} \sin \alpha_1 = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2\alpha + \\ &+ \frac{\sigma_2}{2} \sin 2(\alpha + 90^\circ) = \frac{\sigma_1}{2} \sin 2\alpha - \frac{\sigma_2}{2} \sin 2\alpha = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2} \sin 2\alpha.\end{aligned}\quad (3.14)$$

Formulalarda σ'_{α} va $\tau'_{\alpha} - \sigma_1$ ta'sirida vujudga kelgan kuchlanishlar, σ''_{α_1} va $\tau''_{\alpha_1} - \sigma_2$ ta'sirida vujudga kelgan kuchlanishlar.

Normal va urinma kuchlanishlar yuzachaning qiyalik burchagiga bog'liq bo'ladi. Normal kuchlanishlarning ekstremal (eng past yoki eng yuqori) qiymatlari asosiy kuchlanishlar hisoblanadi. $\alpha = 0$ da eng katta kuchlanish $\sigma_{\alpha \max} = \sigma_1$, $\alpha = 90^\circ$ da eng past kuchlanish $\sigma_{\alpha \min} = \sigma_2$ kuzatiladi.

Urinma kuchlanishlarning eng katta qiymati $\alpha = 45^\circ$ ostidagi qiya yuzachaga to'g'ri keladi: ular asosiy kuchlanishlarning yarmiga teng:

$$\tau_{\alpha \max} = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2}. \quad (3.15)$$



3.3-rasm.

Tekis kuchlanganlik holatida elementning o'zaro perpendikulyar yuzachasidagi normal va urinma kuchlanishlarni aniqlaymiz (3.3-rasm, b). Formulalar (3.13) va (3.14) dan foydalanib, ulardagi α burchakni $\beta = \alpha + 90^\circ$ burchak bilan almashtirib, normal kuchlanishni:

$$\begin{aligned}\sigma_{\beta} &= \sigma_1 \cos^2 \beta + \sigma_2 \sin^2 \beta = \sigma_1 \cos^2 (\alpha + 90^\circ) + \\ &+ \sigma_2 \sin^2 (\alpha + 90^\circ) = \sigma_1 \sin^2 \alpha + \sigma_2 \cos^2 \alpha\end{aligned}\quad (3.16)$$

va urinma kuchlanishni:

$$\tau_{\beta} = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2} \sin 2\beta = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2} \sin 2(\alpha + 90^\circ) = -\frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2} \sin 2\alpha \quad (3.17)$$

topamiz:

Formulalar σ_{α} va σ_{β} ni qo'shib,

$$\sigma_{\alpha} + \sigma_{\beta} = \sigma_1 + \sigma_2 = \text{const} \quad (3.18)$$

ni topamiz, ya'ni ikki o'zaro perpendikulyar yuzachalaridagi normal kuchlanishlar yig'indisi o'zgarmas va asosiy kuchlanishlar yig'indisiga teng.

Formulalar τ_{α} va τ_{β} ni qiyoslab, urinma kuchlanishlarning juftlik qonunini olamiz:

$$\tau_{\alpha} = -\tau_{\beta}.$$

Yassi kuchlanganlik holatining xususiy xolini aytib o'tish kerak: $\sigma_1 = \sigma_2 = \sigma$ da tekshirilayotgan nuqtadan o'tadigan barcha yuzachalarda urinma kuchlanish bo'lmaydi, normal

kuchlanish esa σ ga teng bo‘ladi. Bunday kuchlanganlik holati bir tekis cho‘zilish (siqilish) deb ataladi.

3.3. Hajmiy zo‘riqqan holatdagi qiya yuzachalar bo‘yicha kuchlanishlar.


Hajmiy zo‘riqqan holatida element yoqlariga uchta asosiy kuchlanish σ_1, σ_2 va σ_3 ta’sir qiladi. (3.4-rasm)

Uchta asosiy kuchlanishlarni kesib o‘tadigan qiya yuzachadagi normal va urinma kuchlanishlar quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$\sigma_\alpha = \sigma_1 \cos^2 \alpha_1 + \sigma_2 \cos^2 \alpha_2 + \sigma_3 \cos^2 \alpha_3 \quad (3.13)$$

$$\tau_\alpha = \sqrt{\sigma_1^2 \cos^2 \alpha_1 + \sigma_2^2 \cos^2 \alpha_2 + \sigma_3^2 \cos^2 \alpha_3 - \sigma_\alpha^2} \quad (3.14)$$

Bunda: α_1, α_2 va α_3 ko‘rilayotgan yuzachaga o‘tkazilgan normal bilan tegishli kuchlanishlar σ_1, σ_2 va σ_3 yo‘nalishlari orasida hosil bo‘ladigan burchaklar.



3.4-rasm

Elementning istalgan yuzasidagi normal kuchlanishlar eng katta σ_1 va eng kichik σ_3 kuchlanishlar orasidagi qiymatlarga ega.

Teng qiyalik yoki oktaedrik yuzachalar uchun $\alpha_1 = \alpha_2 = \alpha_3 = \alpha$; $\cos^2 \alpha_1 + \cos^2 \alpha_2 + \cos^2 \alpha_3 = 1$ ligini hisobga olib, $\cos^2 \alpha = \frac{1}{3}$ ga ega bolamiz. Hajmiy zo‘riqqanlik holatidagi bunday yuzachada normal va urinma kuchlanishlar ushbuga teng:

$$\sigma_{oct} = \frac{\sigma_1 + \sigma_2 + \sigma_3}{3} \quad (3.15)$$

va


$$\tau_{oct} = \frac{1}{3} \sqrt{(\sigma_1 - \sigma_2)^2 + (\sigma_2 - \sigma_3)^2 + (\sigma_3 - \sigma_1)^2}. \quad (3.16)$$

Asosiy kuchlanishlar σ_1 va σ_3 dan eng kattasi va eng kichigi 45° burchak ostida qiya yuzachaga ta’sir qiladigan eng katta urinma kuchlanish ular ayirmasining yarmiga teng:

$$\tau_{\alpha \max} = \frac{\sigma_1 - \sigma_3}{2}. \quad (3.17)$$

3.4. Hajmiy va tekis zo‘riqqan holatidagi deformatsiyalar va kuchlanishlar orasidagi bog‘liqlik.

Bog‘liqlikni chiqarish uchun qirralarining abc bo‘lgan va shu qirralariga asosiy kuchlanishlar σ_1, σ_2 va σ_3 ta’sir qiladigan (3.5-rasm) parallelepiped ko‘rinishidagi elementning deformatsiyasini ko‘rib chiqamiz.



3.5-rasm

Deformatsiya natijasida element qirralarining uzunligi o‘zgarib, $a + \Delta a, b + \Delta b$ va $c + \Delta c$ ga teng bo‘lib qoladi. Asosiy kuchlanishlar ta’siri yo‘nalishidagi nisbiy deformatsiyalar *asosiy nisbiy deformatsiyalar* deb ataladi, ular:

$$\varepsilon_1 = \frac{\Delta a}{a}, \quad \varepsilon_2 = \frac{\Delta b}{b} \quad \text{va} \quad \varepsilon_3 = \frac{\Delta c}{c} \quad (3.18)$$

ga teng.

Bu deformatsiyaning qiymati asosiy kuchlanishlar σ_1, σ_2 va σ_3 ga bog‘liq. Kuchlar ta’sirining mustaqilligi qoidasi asosida asosiy nisbiy deformatsiya ε_1 kattaligi quyidagi tenglik tarzida yoziladi:

$$\varepsilon_1 = \varepsilon_1' + \varepsilon_1'' + \varepsilon_1''' \quad (3.19)$$

bunda, ε_1' -kuchlanish σ_1 ta’sirida vujudga kelgan, σ_1 yo‘nalishidagi nisbiy bo‘ylama deformatsiya:

ε_1'' va ε_1''' -kuchlanishlar σ_2 va σ_3 ta’sirida vujudga kelgan, σ_1 yo‘nalishidagi nisbiy ko‘ndalang deformatsiya.

Guk qonunidan hamda markaziy cho‘zilish va siqilishdagi ko‘ndalang va bo‘ylama deformatsiyalarning o‘zaro bog‘liqliklaridan foydalanib, quyidagilarni topamiz:

$$\varepsilon_1' = \frac{\sigma_1}{E}, \quad \varepsilon_1'' = -\nu \frac{\sigma_2}{E} \quad \text{va} \quad \varepsilon_1''' = -\nu \frac{\sigma_3}{E} \quad (3.20)$$

Nisbiy deformatsiyalarni qo‘shib ushbuni olamiz:

$$\varepsilon_1 = \frac{\sigma_1}{E} - \nu \frac{\sigma_2}{E} - \nu \frac{\sigma_3}{E}. \quad (3.21)$$

Asosiy nisbiy deformatsiyalar ε_2 va ε_3 ni ham shunday aniqlaymiz:

$$\begin{aligned}
\varepsilon_1 &= \frac{1}{E} [\sigma_1 - \nu(\sigma_2 + \sigma_3)] \\
\varepsilon_2 &= \frac{1}{E} [\sigma_2 - \nu(\sigma_1 + \sigma_3)] \\
\varepsilon_3 &= \frac{1}{E} [\sigma_3 - \nu(\sigma_1 + \sigma_2)]
\end{aligned}
\tag{3.22}$$

Hosil bo'lgan formulalar hajmiy zo'rliq holatidagi asosiy nisbiy deformatsiyalar bilan asosiy kuchlanishlar orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi va *Gukning umumlashgan qonuni deyiladi*.

Asosiy kuchlanish $\sigma_3 = 0$ deb olib, tekis kuchlanganlik holati uchun Gukning umumlashgan qonunini olamiz:

$$\varepsilon_1 = \frac{\sigma_1}{E} - \nu \frac{\sigma_2}{E}; \quad \varepsilon_2 = \frac{\sigma_2}{E} - \nu \frac{\sigma_1}{E}; \quad \varepsilon_3 = -\frac{\sigma_1}{E} - \nu \frac{\sigma_2}{E}.
\tag{3.23}$$

REJA:

1. Umumiy tushunchalar va to'sin tayanchlarining turlari
2. To'sinlardagi zo'riqish kuchlarini aniqlash
3. Sof egilish va normal kuchlanishni aniqlash
4. To'sinlarning normal kuchlanish bo'yicha mustahkamligini tekshirish

IKKINCHI QISM

EGILISH. Umumiy tushunchalar

Tayanch iboralar

Balka - To'sin. Egilishga qarshilik ko'rsatuvchi silindrik yoki prizmatik jism.


Tekis egilish - To'singa qo'yilgan yuklar uning simmetriya tekisligida yotsa, bunday egilish *tekis egilish* deyiladi.

Sof egilish - To'sinning eguvchi moment o'zgarmas bo'lgan hamda kesuvchi kuch esa 0 ga teng bo'lgan holdagi egilishi.

To'sinlar, ko'pincha, o'z o'qidan o'tuvchi biror tekislikda yotgan kuchlar yoki juft kuchlar ta'sirida bo'ladi va bu kuchlar sistemasi ta'sirida egiladi (1.1-shakl)

Bunday kuchlar ta'sirida g'o'laning to'g'ri chiziqli geometrik o'qi egri chiziqqa aylanadi. Sterjenning bunday deformatsiyasi egilish deyiladi. Egilishga qarshilik ko'rsatuvchi g'o'lalar *to'sin* deb ataladi. To'sin kesimida hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlarini aniqlash uchun kesish usulidan foydalanamiz.

To'singa qo'yilgan yuklar uning simmetriya tekisligida yotsa, bunday egilish *tekis egilish* deyiladi. Aks holda qiyshiq egilish sodir bo'ladi.



1.1-shakl

To'singa qo'yilgan tashqi kuchlardan tashqari, tayanchlarning ham to'singa ta'siri tashqi kuchlar qatoriga kiradi. Shuning uchun to'sinlarni hisoblashni tayanch reaksiyalarini aniqlashdan boshlanadi.

To'sin tayanchlarining turlari

Tekislikda joylashgan to'sinlarga oid tayanchlar uch xil bo'ladi. Tayanchlarning bunday turlarini biz nazariy mexanika kursida batafsil o'rgangan edik.

Ular quyidagilar:

- 1) sharnirli qo'zg'aluvchan tayanch;
- 2) qo'zg'almas sharnirli tayanch;
- 3) qistirib mahkamlangan tayanch.

Materiallar qarshiligi kursida ko'riladigan masalalar statik aniq va statik aniqmas masalalarga bo'linadi.

Agar to'sinning tayanch reaksiyalari faqat statika tenglamalari yordamida aniqlansa, bunday to'sinlar *statik aniq to'sinlar* deyiladi.


Agar noma'lum reaksiyalar soni, shu to'sin uchun tuzilgan statika tenglamalari sonidan ortib ketsa, u holda, to'sinlar *statik aniqmas to'sinlar* deyiladi. Bunday to'sinlarning reaksiyalarini aniqlash uchun qo'shimcha tenglamalar (deformatsiya tenglamalari) tuzish lozim bo'ladi.

TO'SINLARDAGI ZO'RIQISH KUCHLARINI ANIQLASH

Eguvchi moment va kesuvchi kuch

To'sinlarning turli kesimlaridagi kuchlanishlarni bilish uchun avval ularda hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlarini aniqlashni o'rganamiz.

Istalgan ko'ndalang kesimdagi ichki kuchlarni bilish uchun kesish usulidan foydalanamiz, ya'ni to'sinni chap tayanchidan x masofada mn tekislik bilan kesib, uni ikki bo'lakka ajratamiz (1.2-shakl, a). Ajratilgan qismlardan birini (o'ng qismini) tashlab yuborib, qolgan chap qismining muvozanatini tekshiramiz (1.2-shakl, b).



1.2-shakl

To'sinning kesimiga tashlab yuborilgan qismning ta'sirini ifodalovchi kuchlarni qo'yamiz, bu kuchlar shu kesimdagi zo'riqish kuchlariga ekvivalent bo'ladi. Tekis sistema uchun zo'riqish kuchlari eng umumiy holda bir bosh vektor ($\vec{R}$) bilan bir bosh moment (M_x) dan iborat bo'ladi, bunda M_x - kuchlarni kesim markaziga ko'chirishda hosil bo'lgan juft kuchlarning momentlarini algebraik yig'indisi. Zo'riqish kuchlaridan birini ifodalovchi juft kuch momenti *eguvchi moment* deyiladi. Eguvchi momentni M_x bilan belgilaymiz, zo'riqish kuchini ifodalovchi bosh vektor ($\vec{R}$) ni vertikal Q_x bilan gorizontal N_x kuchlarga ajratamiz (1.2-shakl, b). Q_x kesuvchi kuch, N_x esa bo'ylama kuch deyiladi. Bu kuchlarni aniqlash uchun to'sinning qoldirilgan qismi muvozanatini tekshiramiz:

$$\sum X_k = N_x = 0 \text{ yoki } N_x = 0.$$


$$\sum Z_k = Q_x + R_A - P_1 = 0; \quad Q_x = P_1 - R_A \quad (1.1)$$

$$\sum M_0 = R_A \cdot x - P_1(x - a_1) - M_x = 0; \quad M_x = R_A \cdot x - P_1(x - a_1).$$

Endi bu kuchlarning ishoralariga to'htalamiz. Agar bo'ylama kuchning yo'nalishi kesimdan tashqariga yo'nalsa musbat, kesimdan ichkariga yo'nalsa manfiy deb olinadi (1.3-shakl, a).

To'sinning mn kesimidan chap tomonga qo'yilgan tashqi kuchlarning teng ta'sir etuvchisi shu kesimda pastdan yuqoriga va o'ng tomonga qo'yilgan tashqi kuchlarni

teng ta'sir etuvchisi yuqoridan pastga yo'nalgan bo'lsa, kesuvchi kuch musbat, aks



1.3-shakl


holda esa manfiy bo'ladi (1.3-shakl, b). Agar eguvchi moment to'sinning pastki tolalarini cho'zsa, uni musbat aks holda manfiy deb qabul qilamiz (1.3-shakl, v).

Eguvchi moment, kesuvchi kuch va yoyilgan kuch intensivligi orasidagi differensial bog'lanishlar

Eguvchi moment M bilan kesuvchi kuch Q orasidagi matematik bog'lanishni ko'rib chiqamiz. Ixtiyoriy yuklangan to'sin berilgan bo'lsin (1.3-shakl, a).

Uning yoyilgan kuch qo'yilgan uchastkasidan, ya'ni chap tayanchidan x hamda $x+dx$ masofadagi kesimlar yordamida dx uzunlikdagi bir elementini ajratamiz (1.4-shakl, b).

Ajratilgan dx element uzunligi cheksiz kichik bo'lganligi uchun yoyilgan yukni tekis taqsimlangan deb qarash mumkin. Kesilgan elementning chap ko'ndalang kesimiga to'sinning tashlab yuborilgan qism ta'sirini $+Q_x$ kuch va $+M_x$ moment bilan belgilaymiz. Elementning o'ng tomonidagi ko'ndalang kesimida M_x+dM_x va Q_x+dQ_x zo'riqish kuchlari ta'sir qiladi.



1.4-shakl

Ajratilgan element o'ziga qo'yilgan hamma kuchlar ta'sirida muvozanatda turadi (1.4-shakl, b)

ya'ni

$$\sum Z_k = 0; \quad Q_x - q dx - (Q_x + dQ_x) = 0;$$

yoki

$$dQ = -q dx$$

Bu tenglikdan quyidagini hosil qilamiz:

$$\frac{dQ}{dx} = -q \quad (1.2)$$

Demak, kesuvchi kuchdan abssissa - x buyicha olingan birinchi hosila yoyilgan kuch jadalligining teskari ishora bilan olingan qiymatiga tengdir.

Ikkinchi muvozanat tenglamasini yozamiz. Barcha kuchlardan bu elementning o'ng tomonidagi kesimning og'irlik markaziga nisbatan olingan momentlar yig'indisini nolga tenglashtiramiz (1.4-shakl, b)

$$\sum M_0 = 0; \quad M_x + Q_x dx - q dx \frac{dx}{2} - (M_x + dM_x) = 0 \quad (1.3)$$

Bundan $dM_x = Q_x dx - q \frac{(dx)^2}{2}$ kelib chiqadi, dx cheksiz kichik miqdor bo'lgani uchun, $(dx)^2$ ni e'tiborga olmasak ham bo'ladi.

U holda
$$\frac{dM}{dx} = Q_x \quad (1.4)$$

bo'ladi, ya'ni eguvchi momentdan x abssissa bo'yicha olingan birinchi hosila tekshirilayotgan kesimdagi kesuvchi kuchga tengdir. Agar Q_x qiymatini (1.4) dan (1.2)ga qo'ysak quyidagi differensial tenglama kelib chiqadi:

$$\frac{d^2 M}{dx^2} = \frac{dQ_x}{dx} = -q \quad (1.5)$$

ya'ni eguvchi momentdan x abssissa bo'yicha olingan ikkinchi hosila taqsimlangan kuch intensivligiga tengdir.

Bu differensial tenglamalar eguvchi moment va kesuvchi kuch epyuralarini chizishda va ularni tekshirishda muhim ahamiyatga ega.

1. $\frac{dM}{dx} = Q_x$ ning geometrik ma'nosi shuki, u M_x epyurasini chegaralovchi egri chiziqqa o'tkazilgan urinmaning abssissalar o'qi bilan hosil qilgan burchagi tangensini ifodalaydi. Shuning uchun $Q_x = \operatorname{tg} \alpha > 0$ bo'lganda tegishli uchastkada eguvchi moment kattalashadi, aksincha $Q_x = \operatorname{tg} \alpha < 0$ bo'lgan uchastkada eguvchi moment kichiklashadi. Agar Q_x noldan o'tib, o'z ishorasini (+) dan (-) ga o'zgartirsa bu nuqtada eguvchi moment maksimum, aksincha minimum bo'ladi. Agar qaralayotgan uchastkada $Q_x = 0$ bo'lsa, $M_x = \text{const}$ bo'ladi.

2. To'sinning $\frac{dQ_x}{dx} = -q = 0$ ya'ni $Q_x = \text{const}$ bo'lgan uchastkalarida Q_x ning epyurasi abssissalar o'qiga parallel yo'nalgan to'g'ri chiziq, M_x ning epyurasi esa og'ma to'g'ri chiziq bilan chegaralangan.

3. To'sinning tekis taqsimlangan kuchlar qo'yilgan uchastkalarida Q_x ning epyurasi abssissalar o'qiga og'ma bo'lgan to'g'ri chiziq, M_x ning epyurasi esa kvadratik parabola yoyi bilan chegaralangan.

Bulardan tashqari, M_x va Q_x epyuralarining to'g'ri chizilganligini bilish uchun yana quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

1) bir nuqtaga qo'yilgan kuch ta'sir etgan kesimlarda Q_x ning epyurasi shu kuch miqdori qadar sakraydi, M_x ning epyurasidagi og'ma chiziq sinadi;

2) chetki sharnirli tayanchlarda kesuvchi kuch tayanch reaksiyalariga eguvchi moment esa nolga teng bo'ladi. (Agar shu kesimlarga juft qo'yilmagan bo'lsa);


3) juft kuch qo'yilgan kesimlarda eguvchi moment epyurasi uzilib shu juft kuch miqdori qadar sakraydi;

4) to'sinning erkin uchiga juft kuch qo'yilmagan bo'lsa, eguvchi moment shu nuqtada nolga teng bo'ladi, agar to'sin uchiga to'plangan kuch ham qo'yilmagan bo'lsa, u holda shu nuqtada kesuvchi kuch ham nolga teng bo'ladi;

5) qistirib mahkamlangan tayanchlarda kesuvchi kuch shu tayanchning reaksiya kuchiga eguvchi moment esa shu tayanchning reaksiya momentiga teng bo'ladi.

Sof egilish va normal kuchlanishni aniqlash

2.1-shakldagi to'sinning eguvchi moment va kesuvchi kuch epyuralarini tekshirib, quyidagi xulosaga kelimiz (2.1-shakl,b,v)




2.1-shakl

1. To'sinning CD uchastkasidagi eguvchi moment o'zgarmas miqdor bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng, to'sinning bu uchastkasidagi egilish *sof egilish* deyiladi.

Demak, sof egilishda to'sinning ko'ndalang kesimlaridagi eguvchi moment o'zgarmas miqdorga ega bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng bo'ladi. Boshqacha aytganda, agar to'sinning kesimlarida faqat o'zgarmas eguvchi moment hosil bo'lsa, unda sof egilish sodir bo'ladi.

2. To'sinning AC va BD uchastkalarida eguvchi moment o'zgaruvchan miqdor bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng emas. Bu uchastkalardagi egilish *ko'ndalang egilish* deyiladi.

3. To'singa qo'yilgan kuchlar to'sinning bosh tekisliklaridan birida yotgani uchun uning hamma uchastkalarida *to'g'ri egilish* sodir bo'ladi.



2.2-shakl

1. To'singa chizilgan 1-1 va 2-2 to'g'ri chiziqlar deformatsiyadan keyin ham to'g'ri chiziqligicha qolib, faqat juda kichik biror dj burchakka og'adi. Demak, to'sinning deformatsiyagacha bo'lgan tekis ko'ndalang kesim yuzi deformatsiyadan keyin ham tekisligicha qoladi. Bu holat *tekis kesim* yoki *Bernulli* gipotezasi deyiladi. Bu gipotezani oddiy sterjenlarning deformatsiyasida ham ko'rgan edik.

2. To'sinning qabariq tomonidagi ab tolasi cho'zilib, botiq tomonidagi ef tolasi qisqaradi. Ular orasidagi biror ed tolaning uzunligi o'zgarmaydi. Shunday qilib, to'sin qatlamlari orasida shunday qavat topilishi mumkin bo'ladiki, bu qavatda yotgan tolalarning uzunligi o'zgarmaydi, chunki to'sinning cho'zilgan va siqilgan qavatida bunday xolis qavat bo'lishi o'z-o'zidan ravshan. To'sinning cho'zilmagan va qisqarmagan bu tolalari yotgan qavat *neytral qavat* deyiladi.

Neytral qavat bilan to'sinning ko'ndalang kesim tekisligi kesishgan chiziq mazkur kesimning *neytral o'qi* deb ataladi.

To'sin egilganda har bir ko'ndalang kesim o'z neytral o'qi atrofida aylanadi.

Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, to'sin egilganda uning tolalari turlicha deformatsiyalanadi, neytral o'qdan eng uzoqyotgan tolalarning deformatsiyasi eng katta bo'ladi.

Darhaqiqat, to'sin egilgandan keyin neytral qavatdan z masofada turgan ab tola cho'zilib, uzunlikka ega bo'ladi (2.2-shakl,b). Agar kesmani kesmaga parallel qilib o'tkazsak, ab tolaning absolyut cho'zilishi bilan ifodalaniladi va kesma kesmaga teng bo'ladi. Shunday qilib neytral o'qdan z masofada joylashgan tolaning nisbiy cho'zilishini topamiz:

$$\varepsilon_z = \frac{b'b^*}{a'b^*} = \frac{b'b^*}{c'd^*} = \frac{z d\varphi}{\rho d\varphi} = \frac{z}{\rho} \quad (2.1)$$

Bunda ρ - neytral qavatning hozircha noma'lum bo'lgan egrilik radiusi.

Kuchlanishni topishdan oldin yana bir gipotezani e'tiborga olamiz. To'sinning qavatlari deformatsiya vaqtida bir-biriga bosim ko'rsatmaydi, ya'ni to'sinning o'qiga tik yunalgan kuchlanishlar nolga teng bo'ladi. Demak, to'sinning tolalari har biri mustaqil ravishda faqat cho'ziladi yoki siqiladi. Binobarin, egilgan to'sinning tolalaridagi kuchlanishlarni topish uchun oddiy cho'zilish yoki siqilishdagi Guk qonunidan foydalanamiz:

$$\sigma_z = E\varepsilon_z; \text{ yoki } \sigma_z = E \frac{z}{\rho} \quad (2.2)$$

Bundan chiqdi, egilishdagi normal kuchlanish to'sin ko'ndalang kesimining balandligi bo'yicha kuchlanish topiladigan nuqtadan neytral o'qqacha bo'lgan masofaga proporsional ravishda o'zgaradi. Bunga ko'ra eng katta normal kuchlanishlar to'sinning chetki tolalarida hosil bo'ladi. Normal kuchlanish diagrammasi (2.2-shakl,v) da ko'rsatilgan. Cho'zuvchi kuchlanish musbat, siquvchi kuchlanish manfiy deb olinadi.

Normal kuchlanishning kesim yuzasida taqsimlanish qonunini bilgandan so'ng, uning qiymatini topish uchun kesish usulidan foydalanib, muvozanat tenglamalarini tuzamiz. To'sinning bir qismi (2.2-shakl,g) uchun umumiy holda 6 ta muvozanat tenglamasini yozish mumkin:

$$\Sigma X_k = 0; \quad (1) \quad \Sigma M_x = 0; \quad (4)$$

$$\Sigma Y_k = 0; \quad (2) \quad \Sigma M_y = 0; \quad (5)$$

$$\Sigma Z_k = 0; \quad (3) \quad \Sigma M_z = 0. \quad (6)$$

1. Endi bu tenglamalarni biz tekshirayotgan hol uchun yozamiz:

$$\Sigma X_k = 0; \text{ yoki } \int_A \sigma_z dA$$

Bu tenglikka normal σ_z kuchlanishning qiymatini (2.2) formuladan keltirib qo'ysak:

$$\frac{E}{\rho} \int_A z dA = 0 \quad \text{hosil bo'ladi.}$$

Ammo bu ifodada $\frac{E}{\rho} \neq 0$ chunki to'sinning egilgan holatini tekshirayotganimiz uchun $\sigma=0$. Demak, $\int_A z dA = 0$

Bu integral to'sinning ko'ndalang kesim yuzasining neytral o'qqa nisbatan statik momentini ifodalaydi. Demak, ko'ndalang kesimning neytral o'qi uning markazidan o'tadi.

2. Muvozanat tenglamalarining (2) va (3)-si $\Sigma Y_k=0$, $\Sigma Z_k=0$ ayniyatga aylanadi, chunki $\sigma_z dF$ zo'riqish kuchi Oy va Oz o'qlarga perpendikulyar yo'nalgan.

Muvozanat tenglamalarining (4)-si $\Sigma M_x=0$, chunki $\sigma_z dA$ zo'riqish kuchi ox o'qiga paralleldir.

Bu integral to'sinning ko'ndalang kesim yuzasining neytral o'qqa nisbatan *statik momentini* ifodalaydi. Demak, ko'ndalang kesimning neytral o'qi uning markazidan o'tadi.

3. Muvozanat tenglamalarining (5)-sini yozamiz:

$$\sum_A M_y = 0; \quad M - \int_A \sigma_z dA \cdot z = 0;$$

$$M = \int_A \sigma_z \cdot z \cdot dA$$

bunda M – tashqi moment.

Endi bu tenglamaga σ_z ning qiymatini (2.2) formuladan keltirib qo'ysak, quyidagi ifoda kelib chiqadi:

$$M = \frac{E}{\rho} \int_A z^2 dA \quad \text{yoki} \quad M = \frac{E}{\rho} I_y$$

bundan

$$\frac{1}{\rho} = \frac{M}{EI_y} \quad (2.3)$$

Bu yerda $I_y = \int_A z^2 dA$ - ko'ndalang kesimning Oy neytral o'qqa nisbatan olingan *inersiya momenti*, $\frac{1}{\rho}$ neytral tekislikning egriligini ifodalaydigan miqdor, EI_y - egilishdagi bikirligi.

Demak, to'sinning egilgan o'qining egriligi eguvchi momentga to'g'ri proporsional va to'sinning bikirligi EI_y ga teskari proporsionaldir.

Muvozanat tenglamalarining (6)-sini tekshiramiz:

$$M_z=0; \quad \int_A y \sigma_z dA = 0$$

Bunga σ_z ning qiymatini (2.2) dan keltirib qo'ysak:

$$\frac{E}{\rho} \int_A yz dA = 0 \quad \text{hosil bo'ladi.}$$

Ammo $\frac{1}{\rho} \neq 0$ demak, $\int_A yz dA = 0$ bo'ladi.

Bu integral ko'ndalang kesim yuzasidan Oy va Oz o'qlarga nisbatan olingan markazdan qochirma inersiya momentini ifodalaydi; uning nolga teng bo'lishi Oy va Oz o'qlarning bosh markaziy o'qlar ekanligidan dalolat beradi. Demak, kuch yotgan tekislik neytral qavat tekisligiga tik bo'ladi. Tashqi moment M shu bosh o'qlarning biridan o'tgan bosh tekislikda yotadi.

Endi $\frac{1}{\rho}$ ning qiymatini (2.3) formuladan (2.2) formulaga qo'yib, quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\sigma_z = E \frac{z}{\rho} = E \frac{z \cdot M}{EI_y} = \frac{M}{I_y} z \quad (2.4)$$

Bu formula yordamida sof egilgan to'sinning ko'ndalang kesimida yotgan har qanday nuqtaning normal kuchlanishi aniqlanadi. Bu formulani *Bernulli* hosil qilgan.


Ammo ko'ndalang egilishda eguvchi moment to'sin uzunligi bo'yicha o'zgaruvchan bo'lganligi uchun ko'ndalang egilish uchun (2.4) formulani quyidagicha yozamiz:

$$\sigma_z = \frac{M_x}{I_y} z \quad (2.5)$$

bunda M_x - kuchlanish topiladigan kesimdagi eguvchi momentdir.

2.3-chizmada turli shakldagi ko'ndalang kesim uchun normal kuchlanishning kesim balandligi bo'yicha taqsimlanish qonuni ko'rsatilgan.

(2.3-shakl,a)da neytral o'qqa nisbatan simmetrik, (2.3-shakl,b) da esa, nosimetrik kesimlar uchun normal kuchlanishlar diagrammasi tasvirlangan.



2.3-shakl

Neytral o'qdan bir xil uzoqlikda turgan barcha to'lalarning normal kuchlanishlari bir xildir.

Eguvchi moment musbat bo'lgan holda (biz tekshirayotgan hol uchun eguvchi moment manfiydir) to'sinning qabariq tomoni pastga qaragan bo'lib, yuqoridagi tolalar qisiladi.

Eng katta cho'zuvchi va siquvchi normal kuchlanishlar ko'ndalang kesimning neytral o'qidan eng uzoqda joylashgan nuqtalarida hosil bo'ladi, ularning qiymatini esa (2.4) formulaga $z=z_{max}$ qo'yish bilan aniqlanadi:

$$\sigma_{max} = \frac{M}{I_y} z_{max}$$

Bu ifodaning maxrajidagi $\frac{I_y}{z_{max}}$ nisbatni W_y harfi bilan belgilaymiz.

$$W_y = \frac{I_y}{z_{max}} \quad (2.6)$$

Buni e'tiborga olsak, yuqoridagi ifoda bunday yoziladi:

$$\sigma_{\max} = \frac{M_z}{W_y} \quad (2.7)$$

bunda W_y - ko'ndalang kesim yuzining neytral o'qqa nisbatan qarshilik momenti, u (2.6) formuladan aniqlanadi.

Qarshilik momenti ko'ndalang kesimning geometrik xarakteristikalaridan biri bo'lib, uning miqdori egilishda to'sinlarning mustahkamligini aniqlaydi. Qarshilik momenti W_y uzunlik o'lchovining uchinchi darajasi (sm^3), (m^3) bilan o'lchanadi.

To'sinlarning normal kuchlanish bo'yicha mustahkamligini tekshirish

To'sin mustahkam bo'lishi uchun uning xavfli kesimida hosil bo'luvchi maksimal normal kuchlanishlar to'sin materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanishdan ortib ketmasligi kerak.

Agar to'sin cho'zilish va siqilishga bir xilda qarshilik ko'rsatuvchi materiallardan yasalgan va kesim shakli neytral o'qqa nisbatan (2.3-shakl, a) dagi kabi simmetrik bo'lsa, to'sinning mustahkamlik sharti (2.7) formula asosida bunday yoziladi:

$$\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W_y} \leq [\sigma] \quad (2.8.)$$

Bunda $M_{\max}$ - to'sinning xavfli kesimidagi eguvchi moment, $[\sigma]$ - to'sin materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanish.

Agar to'sin materiali cho'zilish va siqilishga har xil qarshilik ko'rsatadigan, chunorchi, mo'rt materialdan bo'lsa, kesim shakli neytral o'qqa nisbatan nosimetrik bo'lsa (2.3-shakl, b), to'sinning mustahkamlik sharti cho'ziluvchi va siqiluvchi zonalar uchun alohida - alohida tuzilishi kerak:

$$\begin{aligned} (\sigma_{\max})_{ch} &= \frac{M_{\max}}{W_1} \leq [\sigma_{ch}], \\ (\sigma_{\max})_s &= \frac{M_{\max}}{W_2} \leq [\sigma_s] \end{aligned} \quad (2.9)$$

Bunda σ_{ch} - cho'zilishdagi normal kuchlanish,

σ_s - siqilishdagi normal kuchlanish.

(2.9) formuladagi keltirilgan qarshilik momentlari quyidagicha formulalar yordamida aniqlanadi (2.3-shakl, b):

$$W_1 = \frac{I_z}{h_1} \text{ va } W_2 = \frac{I_z}{h_2}.$$

To'sinning mustahkamlik sharti (2.8) ga ko'ra, quyidagi uch xil masala hal kilinishi mumkin:

1. Agar to'singa qo'yilgan kuchlar va to'sinning ko'ndalang kesim o'lchamlari ma'lum bo'lsa, xavfli kesimlarning eng katta kuchlanishlari topilib, to'sinning mustahkamligi tekshiriladi;

$$\sigma_{\frac{\max}{\min}} = \pm \frac{M_{\max}}{W_y} \quad (2.10)$$

Bu kuchlanishlar to'sin materiali uchun ruxsat etilgan kuchlanishdan $\pm 5\%$ gina farq qilishi mumkin, aks holda to'sinning mustahkamligi yoki materialning tejalishi ta'minlanmay qoladi.

2. Agar to'sin materiali va uning ko'ndalang kesim o'lchamlari ma'lum bo'lsa, to'sin ko'tara oladigan kuchni topish mumkin bo'ladi. Yuqoridagi $\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W_y} \leq [\sigma]$ formula asosida $M_{\max}$ ni hisoblash kerak:

$$M_{\max} = [\sigma] W_y \quad (2.11)$$

Xavfli kesimning eguvchi momenti M_{max} ni to'singa qo'yilgan kuchlar bilan bog'lab, qo'yilishi mumkin bo'lgan tashqi kuchlar aniqlanadi.

3. Agar to'sin materiali va unga qo'yilgan kuchlar ma'lum bo'lsa, to'sinning mustahkamligini ta'minlovchi ko'ndalang kesimni tanlash va uning o'lchamlarini topish uchun (2.8) formuladan qarshilik momentini aniqlash kerak:

$$W_y \geq \frac{M_{max}}{[\sigma]} \quad (2.12)$$

Topilgan qarshilik momenti bo'yicha kesimning shakliga qarab, yuqoridagi formulaga shu shakl qarshilik momentining geometrik ifodasi qo'yiladi va undan kerakli o'lchamlar aniqlanadi.

Agar to'sin prokat po'latdan yasalgan bo'lsa (2.12) formuladan hosil bo'lgan qarshilik momenti W_y ning qiymatiga ko'ra to'sinning ko'ndalang kesim o'lchamlari sortament-navlar jadvalidan olinadi (qo'shtavr, shveller va boshqalar).

NAZORAT SAVOLLARI

1. To'sin deb nimaga aytiladi?
2. Qanday holda tekis egilish sodir bo'ladi?
3. To'sin tayanchlarining turlari qanday bo'ladi?
4. Qo'zg'aluvchan tayanchda nechta reaksiya kuch hosil bo'ladi?
5. Qo'zg'almas tayanchda nechta reaksiya kuchi hosil bo'ladi?
6. Qistirib mahkamlangan tayanchda nechta reaksiya kuchi hosil bo'ladi?
7. Qanday holda to'sin statik aniq va statik aniqmas bo'ladi?
8. Bo'ylama kuch nima?
9. Ko'ndalang kuch nima?
10. Eguvchi moment nima?
11. N_x , Q_x , va M_x epyuralari yordamida qanday muammolar hal qilinadi?
12. N_x , Q_x , va M_x lar orasidagi differensial bog'lanishlar yordamida epyuralar qanday tekshiriladi?
13. Sof egilish nima?
14. Qanday egilish ko'ndalang egilish deyiladi?
15. Bernulli gipotezasining mohiyati nimani anglatadi?
16. Neytral qavat nima?
17. Neytral o'q nima?
18. Statik moment deganda qanday kattalik tushuniladi?
19. Statik momentning o'lchov birligi qanday?
20. To'sinlarning bikirligi nima?
21. Bikirlikning o'lchov birligi qanday?
22. Egilgan o'q egrilik radiusi qanday kattalik?
23. To'sinning mustahkamlik sharti qanday yoziladi?
24. Mustahkamlik shartidan foydalanib, qanday masalalar hal etiladi?

REJA:

1. Ko'ndalang egilishdagi urinma kuchlanishni aniqlash
2. To'sinlarning mustahkamligini urinma kuchlanishga nisbatan tekshirish
3. Egilishdagi potentsial energiya

Egilishdagi kuchlanishlar

Tayanch iboralar

Ko'ndalang egilish - To'sinning eguvchi moment o'zgaruvchan bo'lib, kesuvchi kuch nolga teng holdagi egilishi.

To'g'ri egilish - To'singa qo'yilgan kuchlar to'sinning bosh tekisliklaridan birida yotganda sodir bo'ladigan egilish.

Neytral qavat - To'sinning cho'zilmagan va qisqarmagan tolalari yotgan qavat.


Neytral o'q - Neytral qavat bilan to'sinning ko'ndalang kesim tekisligi kesishgan chiziq.

KO'NDALANG EGILISHDAGI URINMA KUCHLANISHNI ANIQLASH

Biz ilgari sof egilishni tekshirdik, bu holda to'sinning kesimlarida faqat eguvchi moment hosil bo'lishini ko'rgan edik. Endi to'sinning ko'ndalang egilishini tekshiramiz. Bu holda to'sinning ko'ndalang kesimlarida eguvchi moment bilan birga kesuvchi kuch ham hosil bo'lishini ko'rgan edik.


To'sin kesimlaridagi eguvchi moment ta'siridan shu kesimlarda (2.5) formula yordamida topiladigan normal kuchlanishlar hosil bo'ladi. To'sinning kesimlaridagi kesuvchi kuchlar esa shu kesimda urinma kuchlanish hosil qiladi, urinma kuchlanishlarning juftlik qoidasiga ko'ra, bunday urinma kuchlanishlar to'sinning neytral qavatiga parallel bo'lgan kesimlarda ham hosil bo'ladi degan xulosaga kelamiz.

Keyingi mulohazani quyidagi oddiy tajriba tasdiqlaydi: Ikki mustaqil to'sinni ikki tayanchga ustma-ust qo'yib, o'rtasiga qo'yilgan P kuch bilan egamiz (3.1-shakl). Bu holda har qaysi to'sin mustaqil ravishda egilib, oqibatda ularning ustki tolalari siqiladi, ostki tolalari cho'ziladi, bunda ularning uchlariga oid ko'ndalang kesim tekisligi sinib, pog'onali tekislikka aylanadi. Bu hol to'sinlarning bir-biriga nisbatan bo'ylama tomonga qarab siljishidan dalolat beradi.



3.1-shakl

Shu ikki to'sin yaxlit bo'lsa, uning uchlariga tegishli kesim pog'ona hosil qilmaydi. Bu tajribadan ravshan ko'rinadiki, to'sinning bo'ylama tekisliklari yuzida hosil bo'ladigan zo'riqish kuchlari siljishga qarshilik qiladi. Shaklda bu zo'riqish kuchlari strelkalar bilan ko'rsatilgan. Bunday bo'ylama siljishlar ayniqsa yog'och to'sinlarning egilishida yaqqol namoyon bo'ladi, chunki yog'och to'sin bo'ylama yorilishga zaif qarshilik ko'rsatadi. Shuning uchun egilgan to'sinlarning kesimlarida urinma kuchlanishlarning paydo bo'lishiga ishonch hosil qilingandan keyin ularning miqdori va kesim yuzasi buyicha taqsimlanish qonunlarini aniqlashga kirishamiz. Buning uchun eni u qadar keng bo'lmagan to'g'ri to'rtburchak kesimli oddiy to'sinni ko'rib chiqamiz (3.2-shakl, a). Bu masalani tekshirishda quyidagi ikki gipotezani qabul qilamiz:



3.2-shakl

Bu element tomonlariga quyidagi kuchlar ta'sir qiladi: elementning tomonida normal σ_1 kuchlanish hosil bo'lib, uning qiymati (2.5) formuladan aniqlanadi

$$\sigma_1 = \frac{M_x}{I_y} z \quad (a)$$

bunda M_x birinchi, ya'ni (1-2) kesimdagi eguvchi moment. Bundan tashqari yana shu kesimda hozircha noma'lum bo'lgan σ urinma kuchlanish ta'sir qiladi. To'sinning eni tor bo'lsa, urinma kuchlanish bu kenglikda tekis taqsimlanadi (2-gipotezaga ko'ra). Bu gipoteza *Juravskiy* tomonidan aytilgan.

Bu urinma kuchlanish 1-2 kesimda hosil bo'ladigan kesuvchi kuch ta'sirida yuzaga keladi.

Elementning 3-4'3' omoniga (2.5) formula bilan aniqlanadigan σ_2 normal kuchlanish ta'sir qiladi:

$$\sigma_2 = \frac{M_x + dM}{I_y} z \quad (b)$$

bunda $M_x + dM_x$ ikkinchi, ya'ni 3-4 kesimdagi eguvchi moment. Bu kesimda ham kesuvchi kuchdan hosil bo'ladigan urinma kuchlanish sodir bo'ladi. Ajratilgan elementning 3-2'2'3' tomoniga faqat urinma kuchlanish ta'sir etadi. Bu kuchlanishning qiymati shu elementning

vertikal tomoniga ta'sir qilgan urinma kuchlanishga teng bo'lib, unga teskari yo'naladi. Endi ajratilgan elementga oid muvozanat tenglamasini yozish uchun, unga ta'sir qilgan zo'riqish kuchlarini hisoblab olamiz. Ajratilgan elementning 233'2' omoniga ta'sir qilgan urinma zo'riqish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi $T=\tau b dx$ ga teng. 122'1' tomoniga ta'sir qiladigan normal zo'riqish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi esa

$$N_1 = \int_{A_1} \sigma_1 dA$$

Xuddi shuningdek

$$N_2 = \int_{A_2} \sigma_2 dA$$

Integral ko'ndalang kesim yuzasidan ajratilgan yuza 122'1' yoki 344'3' yuza bo'yicha olinishi kerak.

Endi $\sum X_k = 0$ muvozanat tenglamasini tuzamiz:

$$N_1 - N_2 + T = 0,$$

yoki

$$\int_{A_1} \sigma_1 dA - \int_{A_2} \sigma_2 dA + \tau b dx = 0$$

Bu tenglamadagi σ_1 va σ_2 kuchlanishlarning qiymatlarini (a) va (b) ifodadan keltirib qo'yamiz:

$$\frac{M_x}{I_y} \int_{A_1} z dA - \frac{M_x + dM_x}{I_y} \int_{A_2} z dA + \tau b dx = 0$$

Bu tenglamadagi $\int_A z dA = S_y^{aj}$ ko'ndalang kesimdan ajratilgan 121'2' yuzaning neytral o'qqa nisbatan statik momenti.

Demak, $\frac{S_y^{aj}}{I_y} (M_x - M_x - dM_x) + \tau b dx = 0$ bo'ladi, bunda dM_x to'sinning dx uzunligidagi eguvchi momentning orttirmasidir. Shunday qilib,


$$S_y^{aj} \frac{dM_x}{I_y} = \tau b dx.$$

Demak, $\tau = \frac{dM_x}{dx} \frac{S_y^{aj}}{b I_y}$ bo'ladi. Bu formuladagi $\frac{dM_x}{dx} = Q_x$ bo'lganligidan

$$\tau = \frac{Q_x S_y^{aj}}{b I_y} \quad (3.1)$$

kelib chiqadi. Bunda: τ -ko'ndalang kesimning ixtiyoriy nuqtasidagi urinma kuchlanish, Q_x - tekshirilayotgan ko'ndalang kesimdagi kesuvchi kuch, ko'ndalang kesimdan **urinma kuchlanish topiladigan qatlamdan yuqorida joylashgan yuzaning neytral o'qqa nisbatan statik momenti**, b -urinma kuchlanish topiladigan qatlamdagi ko'ndalang kesim eni, I_y - ko'ndalang kesimning inersiya momenti. Bu formulani birinchi marotaba rus injeneri D.I. Juravskiy chiqargan, shuning uchun **Jurovskiy** formulasi deb ataladi.

To'g'ri to'rtburchakli ko'ndalang kesimning balandligi bo'yicha urinma kuchlanishning taqsimlanish qonunini tekshiramiz (3.3-shakl, a).



3.3-shakl

Urinma kuchlanish faqat S_y^o ga bog'liq bo'lib, har bir kesim uchun Q_z , b va I_y miqdorlari o'zgarmas son ekanligi (3.1) formuladan ko'rinib turibdi, bunda $I_y = \frac{bh^3}{12}$ ga teng. Binobarin, urinma kuchlanish topilishi kerak bo'lgan nuqtadan yuqorida joylashgan yuzaning neytral o'qqa nisbatan statik momentini aniqlaymiz (3.3-shakl,a)

$$S_y^o = A_{oq} z_c \quad \text{bunda}$$

$$z_c = z + \frac{1}{2} \left(\frac{h}{2} - z \right) = \frac{1}{2} \left(\frac{h}{2} + z \right), \quad A_{oq} = b \left(\frac{h}{2} - z \right)$$

Demak,

$$S_y^o = b \left(\frac{h}{2} - z \right) \cdot \frac{1}{2} \left(\frac{h}{2} + z \right) = \frac{b}{2} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) \quad \text{bo'ladi.}$$

Bu formuladan ko'rinadiki, τ -urinma kuchlanishning epyurasi paraboladan iborat. Urinma kuchlanish formulasini yozamiz:

$$\tau_z = \frac{Q_z b \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right) 12}{bh^3 2b} = \frac{6Q_z}{bh^3} \left(\frac{h^2}{4} - z^2 \right)$$

$$z = \pm \frac{h}{2} \text{ bo'lganda } \tau_z = 0 \text{ va } z = 0 \text{ bo'lsa } \tau_z = \frac{3Q_z}{2A}$$

Demak, eng katta urinma kuchlanish neytral o'q ustidagi nuqtalarda bo'lib, uning qiymati quyidagi formuladan topiladi:

$$\tau_z = \frac{3}{2} \frac{Q_z}{A} \quad (3.2)$$

To'sinlarning mustahkamligini urinma kuchlanishga nisbatan tekshirish

To'sin urinma kuchlanishga yetarlicha qarshilik ko'rsatishi uchun unda hosil bo'ladigan **maksimal** urinma kuchlanish to'sin materiali uchun ruxsat etilgan urinma kuchlanishdan ortib ketmasligi kerak.

Shunday qilib, to'sinning urinma kuchlanish bo'yicha **mustahkamlik sharti** quyidagicha yoziladi:

$$\tau_{max} = \frac{Q_{max} S_{max}}{b I_y} \leq [\tau] \quad (3.3)$$

bunda S_{max} ko'ndalang kesimning neytral o'qi yuqorisidagi yuzaning mazkur o'qqa nisbatan statik momenti, $[\tau]$ - material uchun ruxsat etilgan urinma kuchlanish.

Bosh kuchlanishlar. To'sinlarning mustahkamligini bosh kuchlanishlar bo'yicha tekshirish

Biz to'sinlarning mustahkamligini normal va urinma kuchlanishlar bo'yicha hisoblab keldik:


$$\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W_y} \leq [\sigma] \quad (a)$$

$$\tau_{\max} = \frac{Q_{\max} S_{\max}}{b I_y} \leq [\tau] \quad (b)$$

Maksimal normal kuchlanishlar eguvchi moment maksimal bo'lgan ko'ndalang kesimdagi neytral o'qdan eng uzoq nuqtalarda hosil bo'ladi, bu elementlar shaklda A va B harflari bilan ko'rsatilgan (3.4-shakl,a), ularning mustahkamligi (a) formula yordamida tekshiriladi.

Maksimal urinma kuchlanishlar kesuvchi kuch maksimum bo'lgan ko'ndalang kesimlarning neytral o'qdagi nuqtalarda vujudga keladi va bu nuqtadagi C element sof siljish holatida bo'ladi. Bu elementning mustahkamligi (b) formula yordamida tekshiriladi. (3.4-shakl,a) da mustahkamligi tekshirilayotgan to'sinning oldi tomoni ko'rsatilgan. Unda eguvchi moment maksimum bo'lgan kundalang kesimdagi eng katta cho'zuvchi va siquvchi normal kuchlanishlar hosil bo'lgan A va B elementlar bilan bir qatorda kesuvchi kuch maksimum bo'lgan ko'ndalang kesimdagi sof siljish holatida C element ko'rsatilgan. Bu elementlarning har biri oddiy kuchlanish holatida bo'ladi, binobarin, ko'rsatilgan elementlar to'sinning eng xavfli elementlari deb aytishga hech qanday asos yo'q. Ammo neytral o'qdan z masofada turuvchi biror D element murakkab kuchlanish holatida bo'ladi.

Shuning uchun bu elementga ta'sir qiladigan normal va urinma kuchlanishlar garchi bayon etilgan uchta elementga ta'sir qiladigan normal va urinma kuchlanishlardan kichik bo'lsa ham, biroq u xavfliroq holatda bo'lishi mumkin.



3.4-shakl

Chunki bu element ikki xil kuchlanish, ya'ni normal va urinma kuchlanishlar ta'siridadir (3.4-shakl,a,b). Bu kuchlanishlarning qiymatlari (2.5) va (3.1) formulalar yordamida topiladi:

$$\sigma_x = \frac{M_x}{I_y} z \quad (v)$$

$$\tau_x = \frac{Q_x S_y^a}{b I_y} \quad (g)$$

Bu formulalardagi M_x bilan Q_x tekshirilayotgan element joylashgan ko'ndalang kesimdagi eguvchi moment va kesuvchi kuchdir. Biz tekshirayotgan D element tekis kuchlanish holatida bo'ladi. Hozir tekshirayotgan mazkur hol uchun umumiy nazariyani tatbiq qilamiz. Bu holda (3.4-shakl,b)

$$\sigma_\alpha = \sigma = \frac{M_x z}{I_y}, \quad \sigma_\beta = 0$$

bo'ladi, chunki to'sinning neytral qatlamiga parallel qatlamlar bir-birini bosmaydi deb faraz qilinadi.

$$\tau_{\alpha} = \tau, \tau_{\beta} = -\tau \text{ demak, } \tau_{\alpha} = \tau = \frac{Q_x S_y^{\alpha}}{bI_y} \text{ bo'ladi.}$$

To'sinning mustahkamlik shartini tuzish uchun ajratilgan elementning bosh kuchlanishlari bilan yuzalarini topish kerak. Biz tekis kuchlanish holatida bo'lgan elementlarning bosh kuchlanishlarini va bosh yuzalarini topishning umumiy formulalarini ilgari chiqargan edik. Bu formulalarga yuqorida hosil bo'lgan qiymatlarni qo'yib, bosh normal kuchlanishlar uchun quyidagi ifodalarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}\sigma_1 &= \frac{1}{2}[\sigma + \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2}], \\ \sigma_3 &= \frac{1}{2}[\sigma - \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2}]\end{aligned}\quad (3.4)$$

Bosh yuzalarni topish uchun mana bunday formula hosil bo'ladi:

$$\operatorname{tg} 2\alpha_0 = -\frac{2\tau}{\sigma} \quad (3.5)$$

(3.4) formuladan to'sinning bosh yuzalarida hosil bo'ladigan bosh normal kuchlanishlarning qiymatlari, (3.5) formuladan ularning yo'nalishlari aniqlanadi.

Bosh yuzalar bilan 45° burchak hosil qilgan yuzalarda maksimal urinma kuchlanishlar hosil bo'ladi.

$\tau_{\frac{\max}{\min}} = \frac{\sigma_1 - \sigma_3}{2}$ bunda σ_1, σ_3 laming qiymatlarini (3.4) formuladan keltirib qo'ysak, qo'yidagi ifoda chiqadi:

$$\tau_{\frac{\max}{\min}} = \pm \frac{1}{2} \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2} \quad (3.6)$$

Bu formulalardan ko'rinadiki, bosh kuchlanishlar hamda maksimal va minimal urinma kuchlanishlarning eng katta qiymatlari ko'ndalang kesimda hosil bo'ladigan normal va urinma kuchlanishlarga bog'liq.

Binobarin ularning qiymatlarini normal σ kuchlanish bilan urinma τ kuchlanish birgalikda katta qiymatlarga erishgan nuqtalami shu bilan birga M_x va Q_x lar birgalikda eng katta bo'lgan to'sin kesimlarini izlash kerak.

Masalan, qo'shtavr kesimli to'sin uchun bunday nuqta uning pastki va ustki tokchalari bilan devomi ajratuvchi A nuqtaga to'g'ri keladi (3.5-shakl,a) Bu shaklda qo'shtavr uchun

$$\sigma_1 = \sigma_{\max}, \sigma_3 = \sigma_{\min} \text{ va } \tau_{\max}, \tau_{\min}$$


epyuralari ham ko'rsatilgan. Bular (3.4) va (3.6) formulalar asosida chizilgan.

(v) va (g) formulalardan ko'rinadiki, normal σ kuchlanish eguvchi moment M ga urinma τ kuchlanish kesuvchi kuch Q ga boq'liqdir. Binobarin to'sin, uzunasi bo'yicha M_x bilan Q_x ning miqdori birgalikda o'zining eng katta yoki unga yaqinroq qiymatlariga erishgan ko'ndalang kesimlarni izlash kerak.

Shunday qilib, to'sinlarning mustahkamligi bosh kuchlanishlar buyicha quyidagi ikki shart bajarilgan taqdirdagina tekshiriladi:

1) to'sinning biror kesimida eguvchi moment bilan kesuvchi kuch birgalikda o'zining eng katta yoki unga yaqinroq qiymatiga ega bo'lishi shart;

2) to'sin kesimining eni uning ustki va pastki chetiga yaqin erda masalan, qo'shtavr kabi kesimlardagidek keskin o'zgarishi kerak.



3.5-shakl

To'sindagi bosh kuchlanishlar (3.4) formula asosida topilgandan keyin, uning mustahkamlik sharti, mustahkamlik nazariyalaridan biri yordamida tekshiriladi, masalan III nazariyaga ko'ra :


$$\sigma_1 - \sigma_3 \leq [\sigma] \text{ yoki } \frac{1}{2}[\sigma + \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2} - \sigma + \sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2}] \leq [\sigma]$$

bundan
$$\sqrt{\sigma^2 + 4\tau^2} \leq [\sigma] \quad (3.7)$$

IV nazariyaga ko'ra
$$\sqrt{\sigma^2 + 3\tau^2} \leq [\sigma] \quad (3.8)$$

Egilishdagi potensial energiya

Buralishdagi kabi, sof egilishda va ko'ndalang egilishda ham deformatsiyani potensial energiyasi bo'ladi.



3.6-shakl

Biz bilamizki, potensial energiyaning miqdori tashqi kuchlarning bajargan ishiga tengdir. Sof egilgan to'sinning (3.6-shakl) uchidagi ko'ndalang kesimlarining momenti M bo'lgan juft kuch ta'siridan aylanish burchagi φ ni aniqlaymiz:

$$\theta = \frac{\varphi}{2} = \frac{l}{2\rho} \text{ bunda } \varphi \text{ radius } r \text{ bilan egilgan to'sin o'qiga tegishli yoyning markaziy burchagi.}$$

Bu holda:

$$U = A_\varphi = \frac{M\varphi}{2} = \frac{M^2 l}{2EI_y} = \frac{\varphi^2 EI_y}{2l} \quad \text{bo'ladi,}$$


chunki

$$\varphi = \frac{l}{\rho} \quad \text{va} \quad \frac{l}{\rho} = \frac{M}{EI_y}; \quad \varphi = \frac{Ml}{EI_y}$$

Umuman aytganda, deformatsiyaning potensial energiyasi to'plangan yoki juft kuch bilan kuch qo'yilgan kesimda shu kuch yo'nalishi bo'ylab hosil bo'lgan tegishli ko'chish orasidagi ko'paytmaning yarmiga teng $U = \frac{P\delta}{2}$, δ -ko'chish.

Ko'ndalang egilishda M_x eguvchi moment o'zgaruvchi miqdordir.

Bu holda to'sinning har bir kesimida eguvchi moment va kesuvchi kuch hosil bo'ladi. Shuning uchun butun to'sinni tekshirmay, uning dx uzunlikdagi kichik bir elementini tekshirishga to'g'ri keladi (3.7-shakl, a)



3.7-shakl

Eguvchi moment ta'siridan elementning kesimlari aylanib, $d\theta$ burchak hosil qiladi (3.7-shakl, b). Kesuvchi kuch elementni qiyshaytiradi (3.7-shakl, v)

Odatda, urinma zo'riqish kuchi bajargan ish normal zo'riqish kuchi bajargan ishga qaraganda juda kam bo'lganligidan, uni hozircha e'tiborga olmasa ham bo'ladi.

Normal zo'riqish kuchidan hosil bo'lgan elementar ishni sof egilishdagidek hisoblash mumkin:

$$dU = dU_M + dU_Q = \frac{1}{2} M_x d\theta + \frac{1}{2} Q_x d\delta \quad (a)$$

bunda $d\theta$, $d\delta$ umumlashgan kuchishlar; bu umumlashgan ko'chishni shu ko'chishga muvofiq bo'lgan kuch yuzaga keltiradi. Masalan, chiziqli ko'chishni to'plangan kuch, burchakli ko'chishni esa juft kuch hosil qiladi. Demak, to'plangan va juft kuchlar umumlashgan kuchlardir. Umumlashgan ko'chishga ko'paytirganimizda ish miqdori $N \cdot m$ da hosil bo'lishi kerak.

Shunday qilib (a) formulaga kirgan

$$dU_M = \frac{1}{2} M_x d\theta = \frac{M_x^2 dx}{2EI_y} \quad \text{va} \quad dU_Q = \frac{\tau^2 dx}{2G} dA \quad \text{yoki} \quad dU = \frac{(QS_y^Q)^2}{2Gb^2 I_y^2} dx dA \quad (3.9)$$

Butun to'sin uchun keyingi hosil bo'lgan bog'lanishlarni kesim yuzi bo'yicha integrallab, quyidagi ifodani olamiz:

$$U = \int_0^a \frac{M_x^2 dx}{2EI_y} + K \int_0^b \frac{Q_x^2 dx}{2GA} \quad (3.10)$$

bunda

$$K = \frac{A}{I_y^2} \int_A \frac{(S_y^Q)^2}{b^2} dA$$

K ning ba'zi kundalang kesimlar uchun tayyor qiymatlarini mavjud adabiyotlardagi jadvallardan olish mumkin.

Agar yuqorida aytganimizdek kesuvchi kuchdan hosil bo'lgan potensial energiya e'tiborga olinmasa:

$$U = \int_0^a \frac{M_x^2 dx}{2EI_y} \quad (3.11)$$

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday egilish ko'ndalang egilish deyiladi?
2. Bernulli gipotezasining mohiyati nimani anglatadi?
3. Neytral qavat nima?
4. Neytral o'q nima?
5. Statik moment deganda qanday kattalik tushuniladi?
6. Statik momentning o'lchov birligi qanday?
9. To'sinlarning bikirligi nima?
10. Bikirlikning o'lchov birligi qanday?
11. Egilgan o'q egrilik radiusi qanday kattalik?
12. To'sinning mustahkamlik sharti qanday yoziladi?
13. Mustahkamlik shartidan foydalanib, qanday masalalar hal etiladi?
14. Tekis kesim
15. Neytral qavat va neytral o'q nima?
16. Qanday egilish ko'ndalang egilish deyiladi?
17. Egilishdagi bikirlik nima?
18. Egilishdagi qarshilik momenti nima?
19. Egilishning mustahkamlik sharti qanday uch xil masalani hal etadi?
20. Egilishdagi potensial energiya qanday aniqlanadi?
21. Ko'ndalang egilishdagi mo'rt materiallarning mustahkamlik sharti qanday yoziladi?

1. To'sinlarning egilishdagi deformatsiyalarini aniqlash
2. Statik aniqmas to'sinlar


TO'SINLARNING EGILISHDAGI DEFORMATSIYALARINI ANIQLASH

Tayanch iboralar


Salqilik - To'sinning ko'ndalang kesimi og'irlik markazining to'sin o'qiga tik yo'nalishda ko'chishi.

To'sinlarning salqiligi va kesimlarning og'ish burchagi

To'singa qo'yilgan kuchlar uning biror bosh inersiya tekisligi ustida yotsa, to'sinning o'qi ham shu tekislik yuzasida egiladi. Quyidagi chizmada bir uchi bilan mahkamlangan va erkin uchiga P kuch qo'yilgan to'sinning egilgan o'qi kattalashtirilib ko'rsatilgan. To'sinning mahkamlangan uchidan x masofada turgan ko'ndalang kesimning og'irlik markazi O vertikal chiziq bo'yicha O_1 nuqtaga, B esa B_1 nuqtaga ko'chadi.



4.1-shakl



4.2-shakl


To'sinning ko'ndalang kesimi og'irlik markazining to'sin o'qiga tik yo'nalishda ko'chishi (OO_1 va BB_1) to'sinning shu kesimdagi **salqiligi** deyiladi. Salqilikni z harfi bilan belgilaymiz. Har bir kesimning avvalgi vaziyatiga nisbatan burilish burchagi θ shu kesimning **aylanish burchagi** deyiladi.

Amaliy maqsadlar uchun to'sinning har qanday kesimidagi salqilikni va kesimning aylanish burchagini hisoblashga o'rganish lozim. Chunki bu bilan bizga, bir tomondan to'sinning bikirligini tekshirishga imkoriyat tug'lsa, ikkinchi tomondan **statik aniqmas** masalalarni yechishda qo'shimcha tenglamalar tuzishga yordam beradi.

Koordinatalar boshini to'sinning chap uchiga joylashtirib abssissalar o'qini o'ng tomonga to'sin o'qi bo'ylab yo'naltiramiz. Bu holda to'sinning egilgan o'qi tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$z = f(x) \quad (4.1)$$

To'sinning egilgan o'qiga B_1 nuqtada (4.3-shakl) o'tkazilgan urinma abssissalar o'qi bilan tashkil qilgan burchagi kesimning aylanish burchagiga tengligini yuqorida qayd qilgan edik.



4.3-shakl

Ikkinchi tomondan, bizga matematikadan ma'lumki, $z=f(x)$ egri chiziqqa o'tkazilgan urinmaning absissalar o'qi bilan hosil qilgan burchagi quyidagicha aniqlanadi:

$$\operatorname{tg} \theta = \frac{dz}{dx} \quad (4.2)$$

Amalda to'sinning salqiligi uning uzunligiga nisbatan juda kichik miqdor bo'lganligidan, θ burchak, odatda, 1° dan katta bo'lmaydi. Bunday burchak tangensi-ning qiymati uning *radian* qiymatiga teng, ya'ni $\operatorname{tg} \theta = \theta$ deb olish mumkin.

Demak:
$$\theta = \frac{dz}{dx} = z' \quad (4.3)$$

bo'ladi, ya'ni kesimning aylanish burchagi shu kesimdagi salqilikdan x bo'yicha olingan hosilaga teng.

Shunday qilib, to'sin deformatsiyasini tekshirish uning egilgan o'qi tenglamasi $z=f(x)$ ni aniqlashga keltiriladi, salqilik tenglamasini differensiallab, kesimning aylanish burchagini topishimiz mumkin.

Egilgan o'qning taqribiy differensial tenglamasi

Salqilik $z=f(x)$ tenglamasini tuzish uchun to'sin deformatsiyasini tashqi kuch bilan bog'lash kerak, bunday bog'lanish $\frac{1}{\rho} = \frac{M}{EI_y}$ ni biz ilgari chiqargan edik. Bizga matematik analizdan chiziqning egriligi formulasi ma'lum:

$$\frac{1}{\rho} = \pm \frac{z''}{[1 + (z')^2]^{\frac{3}{2}}} \quad (4.4)$$

Amalda θ juda kichik bo'lganligidan $\theta=z'$ ni e'tiborga olmasak (4.4) formulani quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{1}{\rho} = \pm z''$$

Bu formuladagi $\frac{1}{\rho}$ ning eguvchi moment orqali ifodasini qo'ysak:

$$z'' = \pm \frac{M}{EI_y} \quad (4.5)$$

Agar (4.4) va (4.5) formulalarga biz ilgari hosil qilgan differensial bog'lanishlarni solishtirsak, quyidagi qator differensial bog'lanishlarni olamiz:

$$\theta = z', \pm M = EI_y z'', Q = \frac{dM_z}{dx} = (EI_y z'')', -q = \frac{dQ_z}{dx} = \frac{d^2 M_z}{dx^2} = (EI_y z'')'' \quad (4.6)$$

Agar to'sining ko'ndalang kesimi o'zgarmas bo'lsa,

$$\theta = z', \pm M = EI_y z'', Q = \frac{dM_z}{dx} = EI_y z'', -q = \frac{dQ_z}{dx} = \frac{d^2 M_z}{dx^2} = EI_y z^{IV} \quad (4.7)$$

kelib chiqadi.

(4.7) formulalardan ko'rinadiki, o'zgarmas kesimli to'sin tekis yoyilgan ($q=\text{const}$) kuch bilan yuklansa,

$$z^{IV} = -\frac{q}{EI_y} \quad (4.8)$$

Shunday qilib, to'sinning egilgan o'qi bu hol uchun to'rtinchi tartibli egri chiziqdır. To'sinning $q=0$ bo'lgan uchastkasida ko'ndalang kuch o'zgarmas ($Q=\text{const}$) bo'lib, uning elastik chizig'i 3-tartibli egri chiziqli, to'sinning $Q=0$ bo'lgan uchastkasida esa $M=\text{const}$ bo'lib, elastik chiziqli ikkinchi tartibli egri chiziqli bo'ladi.

(4.5) formula to'sin egilgan o'qining **taqribiy tenglamasi** deyiladi.

Sof egilish uchun yozilgan (4.5) formulani ko'ndalang egilish uchun ham bemalol tadbqiq etish mumkin, shuning uchun uni quyidagicha yozish lozim:

$$z'' = \pm \frac{M_z}{EI_y} \quad (4.9)$$

bu formuladagi M_x - o'zgaruvchi miqdordir.

Bundan keyin hamma vaqt z ni yuqoriga yo'naltirib (4.9) formulani musbat ishora bilan olamiz. (4.9) formuladan salqilik tenglamasi (4.1)ni chiqarish uchun uni ikki marotaba integrallash lozim. Eguvchi moment M_x abssissa x ning funksiyasidir, shuning uchun (4.9) ni integrallaymiz:

$$EI_y z = \int dx \int M_z dx + C \cdot x + D \quad (4.10)$$

Shunday qilib, kesimning aylanish burchagi uchun:

$$\theta_z = \frac{1}{EI_y} [\int M_z dx + C],$$

salqilik uchun esa

$$z = \frac{1}{EI_y} [\int dx \int M_z dx + C \cdot x + D],$$

tenglama hosil bo'ldi.


Bu yerdagi integral doimiylari C va D larni to'sin uchlarning mahkamlanish shartlaridan, ya'ni masalaning chegaraviy shartlaridan foydalanib aniqlaymiz.

STATIK ANIQMAS TO'SINLAR

Tayanch iboralar

Statik aniqmas to'sinlar – Tayanch reaksiyalarini aniqlash uchun statika tenglamalari yetarli bo'lmagan to'sinlar.

Tayanch reaksiyalarini aniqlash uchun statika tenglamalari yetarli bo'lmagan to'sinlar **statik aniqmas** to'sinlar deb ataladi. Bunday to'sinlarda qo'shimcha tayanchlar bo'ladi, natijada, «ortiqcha» tayanch reaksiyalari vujudga keladi. C nuqtaga qo'shimcha tayanch qo'yilishi bilan to'sinlar statik aniqmas to'sinlarga aylanadi.



5.1-shakl

Bunday to'sinlarning tayanch reaksiyalarini aniqlash uchun deformatsiya yoki ko'chish tenglamalari deb ataladigan qo'shimcha tenglamalar tuziladi.

Ular to'sin deformatsiyalarining birgalikdagi shartidan olinadi. Har qaysi «ortiqcha» reaksiya bitta qo'shimcha tenglama tuzishni talab qiladi. Qo'shimcha tenglamalar soni to'sinning statik aniqlik darajasini belgilaydi.

Masalani yechishda statik aniqlanmaydigan to'sin xayolan statik aniqlanadigan to'singa aylantiriladi, buning uchun qo'shimcha tayanchlar olib tashlanadi va ularning ta'siri noma'lum reaksiyalar bilan almashtiriladi. Hosil bo'lgan statik aniq to'sin *asosiy sistema* deb ataladi. Shuni aytish kerakki, *asosiy sistema* bir necha usulda tanlanishi mumkin. Asosiy sistema berilgan sistemaga mos kelishi uchun ortiqcha reaksiyani qo'yilish nuqtasining ko'chishiga chek qo'yiladi. Matematik tarzda ifodalanilgan bu shart qo'shimcha tenglamani beradi. Masalani yechish usuli quyidagicha:

- 1) to'sinda vujudga keladigan reaksiyalar chizmada tasvirlanadi, statika tenglamalari tuziladi va ulardan reaksiyalar aniqlanadi;
- 2) qolgan reaksiyalar ichidan «ortiqcha» noma'lum reaksiya asosiy sistemada tasvirlanadi;
- 3) asosiy sistema tashqaridan berilgan yuk bilan va ortiqcha noma'lum reaksiya kuchlari bilan yuklanadi;
- 4) asosiy sistema deformatsiyasini cheklovchi qo'shimcha shart, ya'ni qo'shimcha tenglama yoziladi;
- 5) egilishdagi ko'chishlar uchun universal tenglamalari, Mor usuli, Vereshchagin qoidasi yoki boshqa usullardan foydalanib, qo'shimcha tenglama yoziladi [2];
- 6) statika tenglamalarini qo'shimcha tenglama bilan birga yechiladi va to'sinning noma'lum tayanch reaksiyalari aniqlanadi.

Endi eng oddiy statik aniqlik to'sinlarni ko'rib chiqaylik.

Universal tenglama yordamida statik aniqlikni ochish

Biz quyida foydalanadigan universal tenglamalar umumiy ko'rinishda quyidagicha bo'lib [2]:

$$z_x = f_0 + \theta_0 \cdot x + \frac{1}{EI_y} \left[\sum \frac{M(x-a)^2}{2} + \sum \frac{P(x-b)^3}{6} + \sum \frac{q(x-c)^4}{24} - \sum \frac{q(x-d)^4}{24} \right] \quad (5.1)$$

Bundan bir marta hosila olinsa, kesimning aylanish burchagi tenglamasi chiqadi:

$$\theta = z' = \theta_0 + \frac{1}{EI_y} \left[\sum M(x-a) + \sum \frac{P(x-b)^2}{2} + \sum \frac{q(x-c)^3}{6} - \sum \frac{q(x-d)^3}{6} \right] \quad (5.2)$$

(5.1) va (5.2) formulalar *universal tenglamalar* deyiladi.

Agar to'sinning koordinatalar boshidagi uchi qistirib mahkamlangan bo'lsa, u holda universal tenglamaning f_0 va θ_0 hadlari nolga teng bo'ladi. Agar oddiy to'sin bo'lsa yoki uning o'ng

tomonida konsoli bo'lsa, koordinatalar boshidagi tayanchda $f_0 = 0$ bo'ladi, θ_0 esa o'ng tayanchning salqiliklari nolga tenglik shartidan aniqlanadi.

1-misol. Statik aniqmas to'sinning tayanchlar oralig'i o'rtasiga to'plangan kuch F qo'yilgan (5.2-shakl, a). Q_x va M_x epyuralari yasalsin.

Noma'lum tayanch reaksiyalari R_b , H_b , M_b , va R_c .

To'sin bir marta statik aniqmas, shuning uchun bitta qo'shimcha tenglama zarur.

Statika tenglamalarini tuzamiz:

$$\begin{aligned}\sum X_k &= 0; & H_b &= 0; \\ \sum Z_k &= 0; & R_b + R_c - F &= 0; \\ \sum M_C &= 0; & R_b l - M_b - Fl/2 &= 0.\end{aligned}$$

«Ortiqcha» noma'lum sifatida R_c reaksiyani tanlaymiz. Qo'zg'aluvchan tayanch C ni olib tashlab, asosiy sistema deb bir uchi qisilgan va ikkinchi uchi erkin to'sinni olamiz (5.2-shakl, b). Asosiy sistemani berilgan kuch va «ortiqcha» noma'lum reaksiya R_C bilan yuklaymiz. Qo'shimcha tenglama $z_c = 0$ bo'ladi.

Qo'shimcha tenglamani yozishda C nuqtadagi egilish ifodasini yozamiz va uni nolga tenglashtiramiz:

$$\begin{aligned}x &= l \\ z_c &= \frac{1}{EI_y} \left[-\frac{M_B l^2}{2} + \frac{R_B l^3}{6} - \frac{F(l/2)^3}{6} \right] = 0, \\ 8R_B l - 24M_B - Fl &= 0.\end{aligned}$$

bundan:

$$\begin{cases} 8R_B \cdot l - 24M_B - F \cdot l = 0 \\ 2R_B \cdot l - 2M_B - F \cdot l = 0 \end{cases} \quad \text{bu tenglamalardan}$$

$$6R_B \cdot l = 22M_B; \quad R_B \cdot l = \frac{11}{3}M_B; \quad \frac{88}{3}M_B - 24M_B = Fl \quad \text{bundan}$$

$$M_B = \frac{3Fl}{16}$$

So'ngra R_b ni topamiz:


$$R_B = \frac{11F}{16}$$

$$\text{Statika tenglamasi} \quad \frac{11F}{16} + R_c - F = 0 \quad \text{dan ushbuni topamiz:} \quad R_c = \frac{5F}{16}$$

Endi eguvchi moment M_x va ko'ndalang kuch Q_x larni epyurasini chizamiz. (5.2-shakl) ga qarang.

1-qism $0 \leq x_1 \leq l/2$	2-qism $0 \leq x_2 \leq l/2$
$Q_{x_1} = R_B = \frac{11F}{16}$	$Q_{x_2} = R_c = \frac{5F}{16}$
$M_{x_1} = R_B x_1 - M_B$	$M_{x_2} = R_c x_2$
$x_1 = 0; \quad M_{x_1} = -\frac{3Fl}{16}$	$x_2 = 0; \quad M_{x_2} = 0$
$x_1 = l/2; \quad M_{x_1} = \frac{5Fl}{32}$	$x_2 = l/2; \quad M_{x_2} = \frac{5Fl}{32}$

Eng katta eguvchi moment qisilgan tayanchda paydo bo'ladi.



5.2-shakl

NAZORAT SAVOLLARI

1. Salqilik deganda nimani tushuniladi?
2. Ko'ndalang kesimning aylanish burchagi nima?
3. To'sin egilgan o'qining tenglamasi qanday yoziladi?
4. Ko'ndalang kesim aylanish burchagining matematik ifodasi qanday yoziladi?
5. To'sin egilgan o'qining taqribiy differensial tenglamasi qanday yoziladi?
6. Taqribiy differensial tenglama integrallanganda hosil bo'lgan doimiylar qanday aniqlanadi?
7. Statik aniq to'sinlar qanday bo'ladi?
8. Statik aniqmas to'sinlar qanday bo'ladi?
9. Asosiy sistema qanday hosil qilinadi?
10. Universal tenglamalar va ularning mohiyati qanday bo'ladi?
11. «Ortiqcha» noma'lum nima?
12. «Ortiqcha» noma'lum qanday aniqlanadi?

9 - Ma'ruza.

BURALISH

Reja:

1. Buralish, uning hosil bo'lishi va ta'rifi
2. Burovchi moment uning ishorasi va epyuralari.
3. Buralishda brusning deformatsiyalanishi.

Tayanch iboralar: buralish, shkiv, val, burovchi moment, deformatsiya, tekis buralish, bikrlilik.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Belgilar:



Ms

- Muammoli savol



Mv

- Muammoli vaziyat



Mt

- Muammoli topshiriq



Mm


- Muammoli masala

Matn.


Buralish, uning hosil bo'lishi va ta'rifi .

Buralish deb shunday deformatsiyaga aytiladiki bunda brusning ko'ndalang kesimida faqat bita ichki kuch hosil bo'ladi-bunga burovchi moment M_b deyiladi. Buralishga ishlaydiga brusga val deyiladi. Buralish vallarda, vintli prujinalarda, tasmali uzatmalarda hosil bo'ladi. Brus uchlariga qo'yilgan bir-biriga teng va qarama-qarshi quyilgan kuchlar jufti brusni deformatsiyalashga olib keladi.

Podshipniklarga tayangan va ikkita shkivga maxkamlangan valni qarab chiqamiz



Tasmali uzatma orqali elektr dvigateli biriktirilgan shkiv 1-valni aylantiradi. Shkiv 2-uzatma orqali harakatni shtokka uzatadi. Natijada val aylanadi. Tasmadagi taranglashiah kuchi S_1 yetaklovchi tarmoq kuchi s_1 dan katta. Bu kuchlar shkivda har xil tomonga yo'nalgan kuchlar jufti M_1 va M_2 ni vujudga eltiradi.



$$1\text{-шківда } M_1 = (S_1 - s_1)R_1$$

$$2\text{-шківда } M_2 = (S_2 - s_2)R_2$$

Vallarni hisoblashda ko'p hollarda ichki burovch momentlar sarf qilgan quvvat va valning aylanish chastotasi orqali topiladi. Agar val 1 minutda n marta aylansa u holda valning buralish burchagi 1 sekundda radianlarda ulchanadi va $\frac{n}{60} 2\pi = \frac{n\pi}{30}$ orqali aniqlanadi. 1 sekunddagi

burovchi momentning ishi M val quvvati N orqali aniqlanadi. $N = M_b \frac{n\pi}{30}$ bundan $M_b = \frac{30N}{n\pi}$


agar quvvat N kilovatlarda berilsa $M_b = \frac{30 \cdot 1000N}{n\pi} = 9550 \frac{T}{n}$ (Nm) topiladi.

Burovchi moment uning ishorasi va epyuralari.

Hisob ishlarida ya'ni bikrlilik va mustahkamlikka tekshitishda burovchi moment ishorasining ahamiyati yo'q. Qulaylik uchun M_b epyurasini qurishda quyidagi belgilashlar kiritiladi.




Quyidagi brusni qarab chiqamiz




Brusga to'rtta M burovchi momentlar quyilgan. 1-1 kesimda $M_b = M_1$ ishora musbat, 2-2 kesimda $|M_{b2}| = |M_1 - M_2|$ buning ishorasi M_1 va M_2 dan bog'liq. Agar $M_1 > M_2$ bo'lsa ishora musbat aks holda manfiy, 3-3 kesimda $|M_{b3}| = |M_1 - M_2 - M_3|$

Bir uchi maxkamlangan brusda esa



$$M_{1b} = M_1; \quad M_{2b} = M_1 + M_2$$

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki brusga quyilgan tashqi kuch miqdori burovchi moment qiymatidan kichik bo'ladi. Masalan:



G'olacha (brus) ning xavfli kesimini topish uchun uning ayrim qismlariga ta'sir qiladigan burovchi momentlarni aniqlash kerak. G'olachaning uzunligi bo'yicha burovchi momentning o'zgarish grafiqi *burovchi momentlar epyurasi* deb ataladi.


Epyuralarni yasashda g'ochlarni kuchlar qo'yiladigan qismlarga bo'lib chiqamiz va kesish usulini qo'llaymiz. G'ochlarni tekislik bilan xayolan qismlarga bo'lamiz, bir qismini tashlab yuboramiz va qolgan qismining muvozanatlik shartini ko'rib chiqamiz. G'ochlarning ixtiyoriy kesimidagi burovchi moment kesimning bir tomonida g'ochlarga quyilgan tashqi burovchi momentlar (o'qqa nisbatan) algebraik yig'indisiga teng. Burovchi moment soat mili bo'yicha yo'nalgan bo'lsa, burovchi moment musbat, agar aksincha yo'nalgan bo'lsa, manfiy ishorali bo'ladi. Tashqi burovchi momentlar $m_1 = 200 \text{ N} \cdot \text{m}$, $m_2 = 500 \text{ N} \cdot \text{m}$ va $m_3 = 300 \text{ N} \cdot \text{m}$ bilan yuklangan va uchun burovchi momentlar epyuralarini yasash misolini ko'rib chiqamiz. Moment m_2 valning aylanish tomoniga, m_1 va m_3 lar esa teskari tomonga yo'nalgan (5.8 –rasm).

Valni uch qismga bo'lamiz, ularni ketma-ket koordinatalar bo'yicha x masofada tekislik bilan kesamiz. Qabul qilingan qoidadan foydalanib, valning kesilgan chap qismlari muvozanatlik shartidan kesimlar burovchi momentlar kattaligi va ishoralarini aniqlaymiz.

$$T^I = m_1 = 200 \text{ N} \cdot \text{m};$$

$$T^{II} = m_1 - m_2 = -300 \text{ N} \cdot \text{m};$$

$$T^{III} = m_1 - m_2 + m_3 = 0.$$




5.8-rasm

Nolinchi chiziq 00_1 dan epyuralar yasashda qismlardagi burovchi momentlarga teng ordinatalarni tanlangan masshtabda qo'yamiz. Musbatlarini yuqoriga, manfiylarini pastga qo'yamiz. Qismlardagi burovchi momentlar doimiy. Epyura ikki to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, burovchi moment qo'yilgan kesimda burovchi momentlar epyurasi shu moment qiymatiga sakrash bilan o'zgaradi.

Buralishda brusning deformatsiyalanishi.

Ko'ndalang kesimi doiraviy bo'lgan bir uchi bika maxkamlangan ikki uchiga burovchi moment M_b quyilgan brusni qarab chiqamiz.



M ta'sirida brusning bir tomoni buraladi, natijada buylama o'q yo'nalishi bo'ylab φ hosil bo'ladi. Sxematik tarzda quyidagicha (rasm). dx element ajratib olamiz. Element burchak buralishining elementar yuzaga nisbatiga mutloq burchak buralishi deyiladi $\frac{\partial \varphi}{\partial x} = v$. Agar brusning ko'ndalang

kesimi buyicha burovchi moment miqdori doimiy bo'lsa u holda v quyidagicha bo'ladi $\frac{\varphi}{l} = v$.

Burchak φ radianlarda ulchanadi. U holda buralish burchagi birligi rad/sm, rad/m bo'ladi.

Brusning buralishi bo'yicha quyidagi nazariyalarni aytish mumkin.

1. Brusning ko'ndalang kesimi normal o'q buylab deformatsiyaga qadar tekis va normal joylashgan, deformatsiyadan keyin ham shu kesim normal va o'zgarmas bo'ladi.
2. Ko'ndalang kesim radiusi qisqarmas va o'z uzunligini saqlaydi.
3. Ko'ndalang kesimlar orasidagi masofalar o'zgarmas.

Ushbu gipotezalarga tayangan holda element ko'ndalang kesimlari uzunligi deformatsiyadan so'ng quyidagicha bo'ladi

$$\partial \varphi = v dx$$

Ushbu holda dx elementning chap qismi birkar xlamlangan. U holda $\partial \varphi$ element ung qismi buralish bilan bog'liq bo'ladi. Buylaga tolalar $C_1 C_2$ brus o'qidan ρ masofada joylashgan. $O_1 O_2 C_1 C_2$ ni balandligi dx ga teng bo'lgan parallelepiped deb qarash mumkin. Ushbu parallelepipedning deformatsiyadan so'ng $C_1 C_2$ asosi $C_1 C_2'$

Holatiga keladi. C_2 asos element kesimi buraladi va o'ng tomonda brusning buylama o'qi buylab $\partial \varphi$ burchak hosil qiladi. U holda $C_2 C_2'$ kattalik quyidagiga teng bo'ladi. $\rho d\varphi = \rho v dx$ bu esa C_2 asosning C_1 ga nisbatan absolyut ρ radius buyicha siljishini bildiradi. Ya'ni ushbu burchak γ quyidagiga teng bo'ladi.


$$\gamma = \frac{C_2 C_2'}{dx} = \frac{\rho v dx}{dx} = v \rho.$$

C_2 asos buyicha parallelepiped siljishi radius ρ ga teng. Bu esa burchak deformatsiya τ ni beradi. Guk qonuniga ko'ra

$$\tau = \gamma G = \nu \rho G \quad (1)$$

bo'ladi. Demak, brusning ko'ndalang kesimida o'rinma kuchlanishlar hosil bo'lar ekan. Yunalishi esa har bir nuqtada radiusga perpendikulyar bo'ladi. $\rho = 0$ bo'lganda urinma kuchlanish nolga teng. Bir so'z bilan aytganda buralishda brusning har bir nuqtasida kuchlanganlik holatidagi sof siljish hosil bo'lar ekan.

Elementar yuzasi dF bo'lgan ko'ndalang kesimli brus diametriga markazdan bir xil uzoqlikda joylashgan holni qarab chiqamiz. Har bir yuzaga ta'sir qilayotgan kuch miqdori τdF ga teng. Bu kuchlarga elementar juftlar deyiladi. Bu kabi juft kuchlar ko'ndalang kesimda cheksiz ko'p. Bu kuchlarning hammasi bitta momentga keladi va burovchi moment miqdoriga teng bo'ladi.



Brusning ko'ndalang kesimiga ta'sir qilayotgan burovchi moment va urinma kuch orasidagi munosabatni urnatamiz. Deformatsiyadan so'ng elementar kuch momenti τdF kesim markaziga nisbatan dF yuza bilan $\rho = 0$ masofada joylashgan. U holda

$$dM_b = \tau dF \rho \quad (2)$$

yoki $\tau = \nu \rho G$ ga ko'ra $dM_b = \nu \rho^2 G dF$ bundan

$$M_b = \nu G \int_F \rho^2 dF. \quad (3)$$

Bu yerda $\int_F \rho^2 dF = J_p$ ga brus markaziga nisbatan qutb inertsia momenti deyiladi.

Demak $M_b = \nu G J_p$ bundan

$$\nu = \frac{M_b}{G J_p} \quad (4)$$

Hosil qilingan ifodani (2) ga quysak burovchi moment ta'siridagi brusning ixtiyoriy ko'ndalang kesimidagi urinma kuchlanishlarni topish mumkin.

$$\tau = \frac{M_b}{J_p} \rho \quad (5)$$

Eng katta urinma kuchlanish $\rho = d/2$ bo'lganda hosil bo'ladi.

$$\tau_{\max} = \frac{M_b}{J_p} \frac{d}{2} = \frac{M_b}{W_p} \quad (6)$$

Bu yerda W_p - brus ko'ndalang kesimi qutb qarshiligi momenti.

$$W_p = \frac{J_p}{d/2} = \frac{2J_p}{d} \quad (7)$$

Qutb qarshiligi momenti deb qutb inertsia momentini markazdan kesim og'irlik markazigacha bo'lgan masofa ρ ga nisbatan aytiladi. Birligi sm^3 , m^3 .

Qutb inertsia momenti ko'ndalang kesimi doiraviy bo'lgan hol uchun quyidagiga teng


$$J_p = \frac{\pi d^4}{32} \quad (8)$$

Bundan qutb qarshiligi momentini topish mumkin

$$W_p = \frac{J_p}{d/2} = \frac{\pi d^4 / 32}{d/2} = \frac{\pi d^3}{16}; \quad (9)$$

Hosil qilingan formulalarimiz ko'ngalang kesimi doiraviy bo'lgan holler uchun hisob ishlarida qullaniladi. Agar qaralayotgan kesim xalqadan iborat bo'lsa u holda qutb inertsia momenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$J_p = \frac{\pi(d^4 - d_0^4)}{32} = \frac{\pi d^4}{32}(1 - c^4); \quad c = d_0 / d$$



(1) va (4) formulalardan qutb burchagini aniqlash mumkin. Uzunligi l ga teng brus uchun

$$\varphi = \int_l v dx = \int_l \frac{M_b}{GJ_p} dx \quad (10)$$

Agar burovchi moment brus ko'ndalang kesimida bir xil bo'lsa, u holda

$$\varphi = vl = \frac{M_b l}{GJ_p} \quad (11)$$

bo'ladi. GJ_p – ga buralishdagi birklik deyiladi. Birligi $N \cdot sm^2$; $kN \cdot m^2$ larda ulchanadi.

Nazorat savollari.

1. Buralishga ta'rif bering
2. Burovchi momentga ta'rif bering
3. Qutb inertsia momenti nima?
4. Qutb qarshilik momenti nima?
5. Buralishdagi birklik deb nimaga aytiladi?
6. Burovchi moment epyurasi nimani bildiradi?

1. QIYSHIQ EGILISH

2. NOMARKAZIY SIQILISH YOKI CHO'ZILISH.

3. SIQILGAN STERJENLARNING USTUVORLIGI

Tayanch iboralar

Murakkab qarshilik - Konstruksiya qismining bir necha oddiy deformatsiyalarni keltirib chiqaradigan kuchlar ta'siriga qarshiligi.

Qiyshiq egilish - Eguvchi momentning ta'sir tekisligi to'sin ko'ndalang kesimi bosh markaziy inersiya o'qlaridan hech qaysisi bilan mos tushmaydigan egilish.

Amalda shunday hollar uchraydiki, konstruksiya qismlarining ko'ndalang kesimlarida ikki va undan ortiq kuch omillari vujudga keladi. Konstruksiya qismining bir necha oddiy deformatsiyalarni keltirib chiqaradigan kuchlar ta'siriga qarshiligi **murakkab qarshilik** deb ataladi.

Bunday elementlarni mustahkamlik va bikirligini hisoblashda kuchlar ta'sirining mustaqillilik qoidasiga asoslaniladi. Murakkab qarshilikning quyidagi xillari mavjud:


- a) qiyshiq egilish;
- b) nomarkaziy cho'zilish-siqilish;
- v) buralib egilish.

Qiyshiq egilish

Eguvchi momentning ta'sir tekisligi to'sin ko'ndalang kesimi bosh markaziy inersiya o'qlaridan hech qaysisi bilan mos tushmaydigan holda egilish **qiyshiq egilish** deb ataladi.

Bir uchi qisilgan va bir uchiga F kuchi qo'yilgan to'g'ri to'rtburchak kesimli to'sinni ko'rib chiqamiz: F kuchi bosh markaziy o'q y ga φ burchak ostida yo'nalgan bo'lib, qiyshiq egilishni keltirib chiqaradi (8.1-shakl) Bu kuchni kesimning bosh o'qlari bo'ylab tashkil etuvchilarga ajratamiz.

$$F_z = F \sin \varphi \text{ va } F_y = F \cos \varphi \quad (8.1)$$



8.1-shakl

Shunday qilib, qiyshiq egilish to'sinning bosh inersiya tekisliklaridagi ikki yassi egilishga keltiriladi.

To'sinning erkin uchidan x masofada yotgan ko'ndalang kesim C nuqtasidagi normal kuchlanishlarni aniqlaymiz. Vertikal va gorizontal tekisliklarda egilishni keltirib chiqaradigan eguvchi momentlar bu kesimda tegishli quyidagilarga teng:

$$\begin{aligned} M_y &= F_x x = Fx \sin \varphi = M \sin \varphi \\ M_z &= F_y x = Fx \cos \varphi = M \cos \varphi \end{aligned} \quad (8.2)$$

Har qaysi momentga doir kuchlanishlarni alohida-alohida hisoblash uchun yassi egilishda olingan formula (2.5) dan foydalaniladi. Koordinatalari y va z bo'lgan C nuqtadagi siquvchi normal kuchlanishlar:

$$\begin{aligned} \sigma' &= -\frac{M_z y}{I_z} = -\frac{M \cos \varphi \cdot y}{I_z} \\ \text{va} \quad \sigma'' &= -\frac{M_y z}{I_y} = -\frac{M \sin \varphi \cdot z}{I_y} \end{aligned}$$

Kuchlar ta'sirining mustaqillik qoidasiga muvofiq to'liq kuchlanish:

$$\sigma_c = \sigma' + \sigma'' = -M \left[\frac{\cos \varphi \cdot y}{I_z} + \frac{\sin \varphi \cdot z}{I_y} \right] \quad (8.4)$$

Nuqta koordinatalari y va z formulaga uz ishoralari bilan qo'yiladi.

Ko'ndalang kesimning eng zo'riqqan nuqtalarini topish uchun neytral o'q vaziyatini aniqlash kerak. Qiyshiq egilishda neytral o'q tenglamasi (8.4) formuladan olinadi, bunda $\sigma=0$ deb faraz qilinadi. Bu o'qning joriy koordinatalarini y_0 va z_0 orqali belgilab, ushbuni olamiz:

$$M \left[\frac{\cos \varphi \cdot y_0}{I_z} + \frac{\sin \varphi \cdot z_0}{I_y} \right] = 0 \quad (8.5)$$

$M \neq 0$ bo'lgani uchun:

$$\left[\frac{\cos \varphi \cdot y_0}{I_z} + \frac{\sin \varphi \cdot z_0}{I_y} \right] = 0 \quad (8.6)$$

(8.6) tenglamadan ko'rinadiki, neytral o'q koordinatalar boshi (kesimning og'irlik markazi) orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq ekan ($y_0=0$ va $z_0=0$ da).

Neytral o'q vaziyatini aniqlash uchun uning z o'qiga qiyalik burchagi α ni topamiz (8. 2-shakl, a).

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{y_0}{z_0} \quad (8.7)$$

(8.6) ifodani $\cos \varphi$ z_0 ga bo'lamiz:

$$\frac{y_0}{z_0 I_z} + \operatorname{tg} \varphi \frac{1}{I_y} = 0 \quad (8.8)$$

yoki


$$\frac{y_0}{z_0} = -\operatorname{tg} \varphi \frac{I_z}{I_y} \quad (8.9)$$

U holda

$$\operatorname{tg} \alpha = \frac{y_0}{z_0} = -\operatorname{tg} \varphi \frac{I_z}{I_y} \quad (8.10)$$

Ko'p hollarda $I_y \neq I_z$ va α burchak φ burchakka teng emas. Demak, qiyshiq egilishda neytral o'q, yassi egilishdan farqli ravishda, kuch chizig'iga perpendikular emas. $I_y = I_z$ da (doira yoki kvadrat) perpendikularlik saqlanadi, lekin bunda kesimning barcha markaziy o'qlari bosh o'q hisoblanadi va qiyshiq egilish yuz bema'yi.

Neytral o'q vaziyatini aniqlangandan so'ng unga parallel qilib kesimga ikki urinma o'tkaziladi va undan eng uzoq ya'ni eng katta kuchlanishlar vujudga keladigan xavfli nuqtalar «1» va «2» topiladi (8.2-shakl, a).



8.2-shakl

«1» nuqtada eng katta choʻzuvchi, «2» nuqtada eng katta siquvchi kuchlanish taʼsir qiladi.

$$\sigma_{\max} = M_{\max} \left[\frac{\cos \varphi \cdot y_{\max}}{I_z} + \frac{\sin \varphi \cdot z_{\max}}{I_y} \right] \quad (8.11)$$

bunda: $y_{\max}$ va $z_{\max}$ - neytral oʻqdan eng uzoq nuqta koordinatalari.

Ikkita simmetriya oʻqiga ega boʻlgan koʻndalang kesim toʻgʻri toʻrtburchak, qoʻshtavr va boshqalar uchun mustahkamlik sharti quyidagicha:

$$\sigma_{\max} = M_{\max} \left[\frac{\cos \varphi}{W_z} + \frac{\sin \varphi}{W_y} \right] \leq \sigma_{adm} \quad (8.12)$$

bunda: $W_y = \frac{I_y}{z_{\max}}$ va $W_z = \frac{I_z}{y_{\max}}$ kesimning y va z oʻqlarga nisbatan qarshilik momentlari.

Kesimni tanlashda qarshilik momentlari nisbati $\frac{W_z}{W_y}$ beriladi.

U holda

$$\sigma_{\max} = \frac{M_{\max}}{W_z} (\cos \varphi + \frac{W_z}{W_y} \sin \varphi) \leq \sigma_{adm} \quad (8.13)$$

$\frac{W_z}{W_y}$ nisbat:

- a) toʻgʻri toʻrtburchak uchun b/h ,
- b) qoʻshtavr uchun $6 \dots 8$,
- v) shveller uchun $8 \dots 10$ larga teng boʻladi.

Qiyshiq egilishdagi koʻchishlar kuchlar taʼsirining mustaqillilik qoidasi asosida bosh inersiya oʻqlari yoʻnalishida koʻchishlarni geometrik jamlash yoʻli bilan aniqlanadi. Koʻrilayotgan toʻsinning erkin uchidagi toʻliq koʻchishni hisoblab topamiz (8.2-shakl, b), buning uchun yassi egilishda olingan formuladan foydalanamiz.

Toʻsinning z oʻq boʻyicha egilishi: $f_z = \frac{F_z l^3}{3EI_y}$

Toʻsinning y oʻq boʻyicha egilishi: $f_y = \frac{F_y l^3}{3EI_z}$

Toʻliq egkilish $f = \sqrt{f_y^2 + f_z^2} \quad (8.14)$

Egilish yoʻnalishini quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{f_z}{f_y} = \frac{F \sin \varphi}{F \cos \varphi} \cdot \frac{I_z}{I_y} = \operatorname{tg} \varphi \frac{I_z}{I_y} = \operatorname{tg} \alpha \quad (8.15)$$

Demak, to'liq egilish neytral o'qqa perpendikular yo'nalgan.

NOMARKAZIY SIQILISH YOKI CHO'ZILISH

Tayanch iboralar

Ekssentrisitet - Kuch qo'yilgan nuqtadan qutb-kesimning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa.

G'o'lani siqadigan yoki cho'zadigan kuch g'o'la o'qiga parallel, lekin kuch qo'yilgan nuqta kesimning og'irlik markaziga mos kelmaydigan holdagi deformatsiya *nomarkaziy siqilish yoki cho'zilish* deb ataladi. Kuch qo'yilgan nuqtadan qutb-kesimning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa *ekssentrisitet* deb ataladi.

Qurilish konstruksiyalari elementlariga xos bo'lgan nomarkaziy siqilishning umumiy holini ko'rib chiqamiz. P kuchi koordinatalari y_p va z_p musbat bo'lgan C nuqtaga qo'yilgan (9.1-shakl). Kesimning og'irlik markazidagi O nuqtaga ikkita bir-biriga teng va qarama-qarshi yo'nalgan P_1 , P_2 kuchlarni qo'yamiz. Natijada g'o'lani egadigan $(P_2; P)$ juft kuch hosil bo'ladi. Uning momenti M ga teng.

Natijada momenti M ga teng bo'lgan juftni va g'o'lani o'q yo'nalishida siqadigan P_1 kuchni hosil qilamiz. Bunda kuchni o'z-o'ziga parallel ko'chirish haqidagi L. Puanso lemmasidan foydalaniladi. Demak, nomarkaziy siqilish qiyshiq egilish bilan markaziy siqilishni birgalikda kelishidir.

Koordinatalari y va z bo'lgan B nuqtadagi nomal kuchlanishni aniqlaymiz. Buning uchun juft kuch momentini ikki eguvchi momentga ajratamiz: bu momentlar bosh inersiya tekisliklarida ta'sir qiladi va B nuqtada siquvchi kuchlanishlarni paydo qiladi:

$$M_z = P \cdot y_p \quad \text{va} \quad M_y = P \cdot z_p \quad (9.1)$$

Ikki yassi egilish va P_1 kuchdan paydo bo'ladigan bo'ylama o'q bo'yicha siqilishni jamlab, quyidagini olamiz:

$$\sigma_B = -\frac{P}{A} - \frac{P \cdot y_p \cdot y}{I_z} - \frac{P \cdot z_p \cdot z}{I_y} \quad (9.2)$$

bu yerda A -sterjen ko'ndalang kesim yuzasi.

Nuqta koordinatalari y va z ni formulaga o'z ishoralari bilan qo'yamiz. $I_z = i_z^2 A$ va $I_y = i_y^2 A$ ekanligini hisobga olib quyidagini olamiz:

$$\sigma_B = -\frac{P}{A} \left(1 + \frac{y_p y}{i_z^2} + \frac{z_p z}{i_y^2} \right) \quad (9.3)$$


Nomarkaziy cho'zilishda (9.3) ifodasi oldiga musbat ishorasi qo'yiladi. Ko'ndalang kesimdagi eng zo'riqqan nuqtalarni topish uchun neytral o'q vaziyatini aniqlash kerak.

Nomarkaziy siqilish yoki cho'zilishda neytral o'q tenglamasini hosil qilish uchun (9.3) formulaga $\sigma_B = 0$ ni qo'yamiz va bu neytral o'qdagi nuqtalar koordinatalarini y_0 va z_0 orqali belgilaymiz.

$\frac{P}{A} \neq 0$ bo'lgani uchun

$$1 + \frac{y_p y_0}{i_z^2} + \frac{z_p z_0}{i_y^2} = 0 \quad (9.4)$$

(9.4) tenglamadan ko'rinib turibdiki, neytral o'q koordinatalar boshi (kesimning og'irlik markazi) o'qqa o'tmaydi.



9.1-shakl

Koordinata o'qlari y va z da neytral o'q bilan kesiladigan a_y va a_z kesmalarni aniqlaymiz. $y_0 = a_y$ va $z_0 = 0$ deb faraz qilib, $1 + \frac{y_P a_y}{i_z^2} = 0$ ni olamiz, bundan

$$a_y = -\frac{i_z^2}{y_P} \quad (9.5)$$

Shunga o'xshab, va $y_0 = 0$ da

$$1 + \frac{z_P a_z}{i_y^2} = 0$$

ni olamiz, bundan:

$$a_z = -\frac{i_y^2}{z_P}$$

a_y va a_z larni hisoblab, neytral o'qni o'tkazamiz va unga parallel qilib kesimga ikkita urinma o'tkazamiz: bu neytral o'qdan uzoqda bo'lgan xavfli nuqtalar 1 va 2 ni topish uchun zarur. Shuni aytish kerakki, neytral o'q va kuch qo'yilgan nuqta koordinatalar boshidan har-xil tomonda yotadi. Neytral o'q kesimni siqilgan va cho'zilgan qismlarga ajratadi. «1» nuqtada eng katta siquvchi, «2» nuqtada eng katta cho'zuvi kuchlanish ta'sir qiladi: ular normal kuchlanishlar epyurasida ko'rsatilgan (9.1-shakl).

Absolyut qiymat jihatdan eng katta kuchlanishli nuqta har doim qutb bilan birga bitta kvadrantda yotadi, kuchlanish ishorasi esa kuch xarakteriga mos keladi:

$$\sigma_{\max} = P \left(\frac{1}{A} + \frac{y_P \cdot y_{\max}}{I_z} + \frac{z_P \cdot z_{\max}}{I_y} \right) \quad (9.6)$$

bunda: $y_{\max}$ va $z_{\max}$ neytral o'qdan eng uzoq nuqtalarning koordinatalari.

Burchaklari qirrali simmetrik kesimlar (to'g'ri to'rtburchak, qo'shtavr va h.k.) uchun mustahkamlik sharti quyidagicha yoziladi.

$$\sigma_{\max} = P \left(\frac{1}{A} + \frac{y_P}{W_z} + \frac{z_P}{W_y} \right) \leq \sigma_{\text{adm}} \quad (9.7)$$

bunda:


$W_y = \frac{I_y}{z_{\max}}$ va $W_z = \frac{I_z}{y_{\max}}$ kesimning y va z o'qlarga nisbatan qarshilik momentlari.

Qutb kesimning bosh inersiya o'qlaridan birida masalan z o'qida yotgan holda koordinata $y_p=0$, eng katta kuchlanish esa

$$\sigma_{\max} = P \left(\frac{1}{A} + \frac{z_p}{W_y} \right) \quad (9.8)$$

Bunda neytral o'q z o'qiga perpendikulyar.

Mo'rt materiallar (cho'yan, beton va boshqalar)dan yasalgan g'o'lalarda nomarkaziy siqilishda yuk shunday qo'yilishi kerakki, natijada kesimda faqat siquvchi kuchlanish vujudga kelsin. Bu holda neytral o'q kesimdan tashqaridan yoki unga tegib o'tadi. G'o'la kesimining og'irlik markazi atrofidagi bir xil ishorali kuchlanish olish uchun bo'ylama kuch qo'yilishi lozim bo'lgan soha *kesim o'zagi* deb ataladi.



9.2-shakl

Kesim o'zagini yasash siquvchi kuch eksentrisitetining chegaraviy qiymatini hisoblab topishga asoslangan.

To'g'ri to'rtburchak o'zagining o'lchamlarini aniqlash uchun (9.2-shakl,a) uning korturiga to'rtta urinma 1-1, 2-2, 3-3 va 4-4 o'tkaziladi. Neytral o'q 1-1 ga mos keladigan z o'qidagi qutb nuqta 1 quyidagi formuladan topiladi:

$$z_p = -\frac{i_y^2}{a_z} = \frac{b}{6} \quad (9.9)$$

chunki

$$a_z = -\frac{b}{2}; \quad i_y^2 = \frac{I_y}{A} = \frac{b^2}{12}$$

Neytral o'q 2-2 ga mos keladigan y o'qidagi qutb nuqta 2 quyidagi formuladan topiladi:

$$y_p = -\frac{i_z^2}{a_y} = \frac{h}{6} \quad (9.10)$$

chunki

$$a_y = -\frac{h}{2}; \quad i_z^2 = \frac{I_z}{A} = \frac{h^2}{12}$$

Neytral o'qlar 3-3 va 4-4 vaziyati mos keladigan 3 va 4 nuqtalar ham xuddi shunday topiladi. Bunda $z_p = -\frac{b}{6}$ va $y_p = -\frac{h}{6}$

Nuqtalarni tutashtirib, to'g'ri to'rtburchak kesimi o'zagining korturini ifodalaydigan romb 1-2-3-4 ni hosil qilamiz. Romb diagonallari $\frac{h}{3}$ va $\frac{b}{3}$ ga teng.

Doira kesimi o'zagining konturi (9.2-shakl,b) simmetriya bo'yicha aylanadan iborat.

Z o'qiga perpendikulyar urinma I-I neytral o'q hisoblanadi.

Neytral o'qqa mos keladigan z o'qidagi qutb quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$z_p = -\frac{i_z^2}{a_z} = \frac{r}{4} \quad (9.11)$$

chunki

$$a_x = -r; \quad i_y^2 = \frac{I_y}{A} = \frac{r^2}{4}$$

SIQILGAN STERJENLARNING USTUVORLIGI

Tayanch iboralar

Bo'ylama egilish - Markazga qo'yilgan P kuchlar ta'sirida uzun, ingichka sterjenlarning qiyshayishi.

Ustuvorlik - Deformatsiyalangan jismning kuch ta'sirida o'zining dastlabki muvozanatdagi shaklini saqlash xususiyati.

Markazga qo'yilgan P kuchlar ta'sirida uzun, ingichka sterjenlarning qiyshayishi **bo'ylama egilish** deb ataladi. Bunday sterjenlar ma'lum kritik qiymatdan oshmaydigan kuch bilan siqilganda qisilishga ishlaydi va uning o'qi to'g'ri chiziqligicha qoladi. Agar siquvchi kuch kritik qiymatdan oshsa, sterjen to'satdan qiyshayadi va uning o'qi bukiladi, ya'ni u ustuvorligini yo'qotadi hamda siqilishga va egilishga ishlaydi. Sterjen ustuvorligining yo'qolishi katta deformatsiyalarga va kuchlanishlar paydo bo'lishiga olib keladi, natijada sterjen yemiriladi.


Deformatsiyalangan jismning kuch ta'sirida o'zining dastlabki muvozanatdagi shaklini saqlash xususiyatiga **ustuvorlik** deb ataladi. Ma'lumki, qattiq jismning muvozanati **ustuvor** va **noustuvor** bo'lishi mumkin.

Ko'ndalang kuch ta'sirida sterjen dastlabki muvozanat holatidan biroz og'gan bo'lsa va yuk olingandan so'ng u dastlabki holatiga qaytsa, sterjenning elastik muvozanati (10.1-shakl,a) **ustuvor** hisoblanadi.

Agar sterjen og'ish yo'nalishida deformatsiyalanishda davom etsa va yuk olingandan so'ng ham dastlabki holatiga qaytmasa, sterjenning elastik muvozanati (10.1-shakl,v) **noustuvor** hisoblanadi.

Sterjenning ustuvor va noustuvor holatlari orasida o'tish-kritik holati yotadi (10.1-shakl,b). Sterjen bu holatda dastlabki muvozanat holatini saqlaydi, lekin siquvchi kuch ozgina ortsa u o'z muvozanat holatini yo'qotishi mumkin.

Sterjen ustuvor muvozanat holatidan noustuvor muvozanat holatiga o'tadigan eng kichik kuch P_{cr} - kritik kuch deb ataladi. Bu kuchning qiymati sterjen materialiga, kesim shakliga va tayanchlarga bog'liq bo'ladi.



10.1-shakl

Konstruksiya elementlarining xavfsizligi uchun yo‘l qo‘yiladigan kuch kritik kuchdan kichik bo‘lishi kerak.

$$P_{adm,s} = \frac{P_{cr}}{K_s} \quad (10.1)$$

bunda: K_s - ustuvorlik zaxirasi ko‘ffitsienti.

K_s - ko‘ffitsientining qiymatlari:

po‘lat uchun 1,8...3

cho‘yan uchun 5... 6

yog‘och uchun 2,5...3,2


Sterjenning ustuvorlik zahirasi quyidagi shartning bajarilishini ta‘minlaydi:

$$P \leq P_{adm,s} \quad (10.2)$$

Siqilgan sterjenning kritik kuchini aniqlash uchun Eyler formulasi

Elastik bosqichda ustuvorligini yo‘qotgan sterjendagi kritik kuch qiymati 1744 yilda *L. Eyler* tomonidan chiqarilgan formuladan aniqlanadi. Bu masalani yechishda siqilgan sterjenning o‘qi biroz egilgan deb olib, bunday egilishni hosil qilgan kuch aniqlanadi.

Sharnirli mahkamlangan uchlariga chegaraviy kuchlar $P=P_{cr}$ (10.2-shakl) qo‘yilgan sterjenni ko‘rib chiqamiz. Sterjenning ustuvorligini yuqotishi eng kichik EI_{min} -bikirlikka ega bo‘lgan tekislikda yuz beradi.



10.2-shakl

Kritik kuchni aniqlash uchun sterjen egilgan o'qining taqribiy differensial tenglamasidan foydalaniladi.

$$EI_{\min} \frac{d^2 y}{dx^2} = M(x)$$

Bunda y egilgan o'q ixtiyoriy kesimidagi ordinatasi bo'lib, eguvchi momenti esa,

$$M(x) = -P \cdot y \quad (10.3)$$

U holda

$$EI_{\min} \frac{d^2 y}{dx^2} = -P \cdot y \quad (10.4)$$

Bu tenglamani $EI_{\min}$ ga bo'lsak:

$$\frac{d^2 y}{dx^2} + \frac{P}{EI_{\min}} \cdot y = 0 \quad (10.5)$$

Agar quyidagi belgilashni kiritsak:

$$\frac{P}{EI_{\min}} = k^2 \quad (10.6)$$

ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglama hosil bo'ladi

$$\frac{d^2 y}{dx^2} + k^2 \cdot y = 0 \quad (10.7)$$

Bu tenglamaning umumiy yechimi:

$$y = a \sin kx + b \cos kx, \quad (10.8)$$

bunda: a va b - integrallash doimiylari.

Bularni aniqlash uchun chegaraviy shartlardan foydalaniladi:

1-holda $x = 0$ da $y = 0$,

2-holda $x = l$ da $y = 0$.

Birinchi shartdan ushbuni olamiz: $b = 0$.

Shunday qilib, sterjen sinusoida bo'yicha egilar ekan:

$$y = a \sin kx \quad (10.9)$$

Ikkinchi shartdan:

$$a \sin kl = 0 \quad (10.10)$$

Bundan a yoki $\sin kl$ nolga tengligi kelib chiqadi. Agar $a=0$ bo'lsa, sterjenning egilishi nolga teng, bu esa dastlabki shartlarga teskari. Demak $\sin kl=0$ trigonometrik tenglamaning ildizi kl cheksiz ko'p qiymatga ega:

$$kl=0, \pi, 2\pi, 3\pi, \dots, n\pi$$

Bundan

$$k = \frac{n\pi}{l} \quad (10.11)$$

bunda: n - ixtiyoriy butun son

$$k = \sqrt{\frac{P}{EI_{\min}}}$$

bo'lgani uchun siquvchi kuch

$$P = \frac{\pi^2 EI_{\min}}{l^2} n^2 \quad (10.12)$$

Amaliy hisoblar uchun $n=1$ da quyidagi formuladan olingan eng kichik kritik kuch ahamiyatga ega:

$$P_{cr} = \frac{\pi^2 EI_{\min}}{l^2}$$

Bu formula *Eyler formulasi* deyiladi.

Bu kuch sterjenning bitta yarim to'liqinli sinusoida bo'yicha egilishiga mos keladi

$$y = a \sin \frac{\pi x}{l} \quad (10.13)$$

Kritik kuchlanish

Kritik kuch ta'sirida vujudga kelgan kuchlanish *kritik kuchlanish* deb ataladi.

$$\sigma_{cr} = \frac{P_{cr}}{A} = \frac{\pi^2 EI_{\min}}{l^2 A} \quad (10.14)$$

Ushbu $i_{\min}^2 = \frac{I_{\min}}{A}$ bo'lgani uchun ($i_{\min}$ - eng kichik inersiya radiusi) quyidagini olamiz:

$$\sigma_{cr} = \frac{\pi^2 E i_{\min}^2}{l^2} = \frac{\pi^2 E}{\left(\frac{l}{i_{\min}}\right)^2} \quad (10.15)$$


$\lambda = \frac{l}{i_{\min}}$ deb belgilaymiz,

$$\sigma_{cr} = \frac{\pi^2 E}{\lambda^2} \quad (10.16)$$

O'lchamsiz qiymat 1 sterjenning egiluvchanligi deb ataladi. Uning kattaligiga ko'ra sterjenning egilishga qarshilik ko'rsatish xususiyatini aniqlanadi.

Sterjen uchlarini mahkamlash usulining ta'siri

Kritik kuch qiymati sterjen uchlarini mahkamlanish usuliga bog'liq bo'ladi. Eyler formulasi mahkamlashning asosiy usuli hisoblangan sharnirli mahkamlangan sterjen uchun chiqarilgan (10.2-shakl) Sterjen uchlarini mahkamlashning boshqa usullarini ko'rib chiqamiz.



10.3-shakl

Bir uchi qisilgan va bir uchi erkin sterjen (10.3a-shakl), sterjenning egilgan uchi xuddi uchlari sharnirli mahkamlangan sterjenlarning yarmidek, lekin uzunligi \$2l\$ holida turadi (10.3a-shakl)

Demak,

$$P_{cr} = \frac{\pi^2 EI_{min}}{(2l)^2} \quad (10.17)$$

Ikki uchi qisilgan sterjen (10.3-shakl, b), sterjenning egilgan o'qi \$l/4\$ uzunlikdagi to'rtta teng qismdan iborat, bu qismlar xuddi bir uchi qisilgan sterjendek sharoitda turadi.

Demak,

$$P_{cr} = \frac{\pi^2 EI_{min}}{\left(\frac{2l}{4}\right)^2} \quad (10.18)$$


Bir uchi qisilgan va ikkinchi uchi sharnirli mahkamlangan (10.3-shakl, v), bo'lsa, sterjenning bukilgan o'qi taxminan \$l/3\$ uzunlikdagi uchta qismdan iborat, bu qismlar xuddi bir uchi qisilgan sterjendek sharoitda turadi.

$$P_{cr} = \frac{\pi^2 EI_{\min}}{\left(\frac{2l}{3}\right)^2} \quad (10.19)$$

Bu formulalarni bitta formulaga birlashtiramiz:

$$P_{cr} = \frac{\pi^2 EI_{\min}}{(\mu \cdot l)^2} \quad (10.20)$$

bunda: μ -uzunlikni keltirish koeffitsenti. U sterjenning mahkamlanish turiga bog'liq (10.4-shakl). μl hosilaviy keltirilgan uzunlik deb ataladi va l_{ef} deb belgilanadi.



Eyler formulasining qo'llanish chegarasi

Eyler formulasidan ma'lum sohalarda foydalanish o'rinli bo'ladi. Kritik kuchlanishlar qiymati sterjenning haqiqiy (real) egiluvchanligiga bog'liq. 3-navli po'lat uchun kritik kuchlanish sterjenning egiluvchanligiga bog'liq grafigini ko'ramiz. Buning uchun quyidagilardan foydalanamiz:

l	150	100	80	50
σ_{cr} MPa	87,7	200	330	800


(10.5-shakl) munosabat giperbolik egri chiziqdan iborat bo'lib, *Eyler giperbolasi* deb ataladi.

Kritik kuchni aniqlash formulasini chiqarishda, material Guk qonuniga buysunadi deb faraz qilinadi. Demak, kritik kuchlanish σ_{cr} mutanosiblik chegarasi σ_{pr} dan oshmasligi lozim. Eyler formulasi quyidagi shart bajarilgan oraliqda o'rinli:

$$\sigma_{cr} \leq \sigma_{pr}$$

yoki

$$\frac{\pi^2 E}{\lambda^2} \leq \sigma_{pr} \quad (10.21)$$



Bu shartdan Eyler formulasi o‘rinli bo‘lgan eng kichik chegaraviy egiluvchanlik aniqlanadi:

$$\lambda_{\text{lim}} \geq \sqrt{\frac{\pi^2 E}{\sigma_{pr}}} \quad (10.22)$$

Masalan, 3-navli po‘lat ($E=2 \cdot 10^5 \text{MPa}$, $\sigma_{pr}=200 \text{MPa}$)

$$\lambda_{\text{lim}} = \sqrt{\frac{3.14^2 \cdot 2 \cdot 10^5}{200}} \approx 100$$

Cho‘yan va yog‘och uchun chegaraviy egiluvchanlikni ham shunga o‘xshab aniqlash mumkin. Shunday qilib, Eyler formulasi quyidagi egiluvchanliklar uchun o‘rinli:

$$\text{po‘lat} \quad \lambda_{\text{lim}} \leq 100,$$

$$\text{cho‘yan} \quad \lambda_{\text{lim}} \leq 80,$$

$$\text{yog‘och} \quad \lambda_{\text{lim}} \leq 110.$$

Bundan kichik egiluvchanlik uchun Eyler formulasi yaramaydi, chunki kritik kuchlanish mutanosiblik chegarasidan ortiq.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Egilishning qaysi holi qiyshiq egilish deyiladi?
2. Qiyshiq egilishda sof egilish bo'lishi mumkinmi?
3. Qiyshiq egilishda ko'ndalang kesimning qaysi nuqtalarida eng katta kuchlanish vujudga keladi?
4. Qiyshiq egilishda neytral o'q holati qanday topiladi?
5. Ko'ndalang kesimi doira bo'lgan to'sinning qiyshiq egilishi mumkinmi?
6. Qiyshiq egilish vaqtida deformatsiya qanday aniqlanadi?
7. Murakkab qarshilikdagi kuchlanish formulalarini chiqarishda qanday prinsipdan foydalaniladi?
8. Qanday kuchlanish holati nomarkaziy siqilish deb ataladi?
9. Nomarkaziy siqilishda har qanday nuqtaning kuchlanishi qanday formula bilan aniqlanadi?
10. Kesimning inersiya radiusi qanday topiladi?
11. Siquvchi kuch kesimning bosh o'qlaridan birining ustida yotsa, kuchlanish qanday formula yordamida aniqlanadi, bu formula qanday chiqariladi?
12. Ekssentrisitet deb nimaga aytiladi?
13. To'g'ri to'rtburchakli kesimda uning katta tomoni bo'ylab kuchlanish ekssentrisitetning $e = \frac{h}{6}$, $e > \frac{h}{6}$ va $e < \frac{h}{6}$ uchta xususiy holati uchun qanday taqsimlanadi va bu hollar uchun neytral o'q qanday vaziyatlarga ega bo'ladi?
14. Siqilgan sterjenlar ustuvordigining yo'qolish belgilari nimadan iborat?
15. Qanday kuch kritik kuch deb ataladi?
16. Kritik kuchlanish nima?
17. Eyler formulasini chiqarishda egilish nazariyasining qanday differensial tenglamasidan foydalanilgan edi?
18. Sterjenlarning egiluvchanligi nima?
19. Eyler formulasi qanday ko'rinishga ega? Bu formulani chiqaring.

BA'ZI ATAMA VA BELGILASHLAR IZOHI

- ABSOLYUT — nisbat berilmay, qiyos qilinmay olingan, absolyut.
- BALKA — To'sin, egilishga qarshilik ko'rsatuvchi silindrik yoki prizmatik jism.
- BRUS — G'o'la. Egilishga hamda siqilishga qarshilik ko'rsatuvchi, uncha uzun bo'lmagan, silindrik yoki prizmatik jism.
- VAL — Ham egilishga ham buralishga ishlaydigan jism.
- VINTSIMON — burama.
- DVIGATEL — harakatga keltiruvchi kuch.
- KRITIK KUCH — sterjenning ustuvor holatdan noustuvor holatga o'tish paytdagi kuch.
- KONSOL — Bir uchi mahkamlangan ikkinchi uchi esa, erkin bo'lgan to'sin yoki to'sin bo'lagi.
- KONSTRUKSIYA — Inshoat, mexanizm va sh.k. yoki ularning tayyor murakkab qismi.
- INTENSIVLIK — Jadallik.
- FAKTOR — omil.
- POTSHIPNIK — potshipnik; sharikli potshipnik-zoldirli potshipnik; rolikli potshipnik-rolikli potshipnik.
- PRINSIP — asosiy qonun-qoida.
- PROPORSIONAL — mutanosib.
- STERJEN — Cho'zilishga yoki siqilishga ishlaydigan, ko'ndalang kesim o'lchamlari uzunligiga qaraganda ancha kichik bo'lgan silindrik yoki prizmatik jism.
- SHARNIR — Koordinata o'qlari atrofida bimalol aylana oladigan lekin o'qlar bo'ylab siljiy olmaydigan tayanch.
- SHKIV — shkiv (uzatma tasmasini harakatga keltiruvchi g'ldirak)
- SISTEMA — tizim.
- STANOK — dastgoh.
- E — Cho'zilish yoki siqilishdagi elastiklik moduli.
- e — Ekssentrisitet.
- A — Ko'ndalang kesim yuzasi.
- μ — Puasson koeffitsienti. Po'lat uchun $\mu=0,25-0,33$.
- N — Nyuton, Xalqaro SI sistemasidagi kuch birligi. $1N=0,102\text{ kg}\cdot\text{k}$ (bitta o'rtacha kattalikdagi olma og'irligiga teng keladigan kuch).
- α — Chiziqli kengayish koeffitsienti bo'lib, po'lat uchun $\alpha=125\cdot10^{-7}$.
- γ — Burchakli deformatsiya.
- θ — Buralish burchagi, kesimning buralish burchagi.
- ρ — Egrilik radiusi.
- G — Siljishdagi elastiklik moduli po'lat uchun $G=8,1\cdot10^5\text{ kg}\cdot\text{k}/\text{sm}^2$.
- $[\sigma], \sigma_{\text{adm}}$ — Jism materiali uchun ruxsat etilgan normal kuchlanish.
- M_{red} — Ekvivalent moment

11 - Ma'ruza. MUSTAHKAMLIK NAZARIYALARI

Reja:

1. Eng katta normal kuchlanishlar nazariyasi. (birinchi mustahkamlik nazariyasi)
2. Eng katta chiziqli deformatsiyalar nazariyasi. (ikkinchi mustahkamlik nazariyasi)
3. Eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasi. (uchinchi mustahkamlik nazariyasi)
4. Shakl o'zgarishi energiyasi nazariyasi. (to'rtinchi mustahkamlik nazariyasi)
5. Chegaraviy zo'riqqanlik holati nazariyasi. (beshinchi mustahkamlik nazariyasi).

Tayanch iboralar: Normal va urinma kuchlanish, zo'riqish holati, deformatsiya, tekis zo'riqish, qiya tekislik, qiya yuza, hajmiy zo'riqish.

Dars o'tish usuli: namoyish dasturiy vositalar, jonli muloqotli ma'ruza.

Darsning xronologik xaritasi – 80 minut.

Tashkiliy qism: xonaning tozaligi, jihozlanishi, sanitariya holati, talabalarning davomati – 2 minut.

Talabalar bilimni baholash: o'tilgan mavzuni qisqacha takrorlash, talabalar bilan savol javob o'tkazish – 10 minut.

Yangi mavzu bayoni – 55 minut.

Mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash – 10 minut.

Sinov savollari – 5 minut.

Uyga vazifa berish – 3 minut.

Belgilar:



- Muammoli savol



- Muammoli vaziyat



- Muammoli topshiriq



- Muammoli masala

Matn.

4. Mustahkamlik nazariyalari. Mexanik sinovlarda bir o'qli cho'zilish (siqilish) sharoitida materialning xavfli holatini ifodalaydigan kuchlanish yuz beradi. Plastik materialning cho'zilishdagi xavfli holati deganda, yalpi qoldiq deformatsiyalarning paydo bo'lishi tushuniladi. Mo'rt materialning xavfli holati buzilishi oldi darzlari paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Plastik materiallarda xavfli holat yuz berganda ko'ndalang kesimlardagi normal kuchlanishlar oquvchanlik chegarasiga, mo'rt materiallarda esa mustahkamlik chegarasiga yetadi. Agar haqiqiy kuchlanish yo'l qo'yiladigan qiymatdan oshmasa, bir o'qli cho'zilish (siqilish) da materialning mustahkamligi ta'minlanadi.

Hajmiy zo'riqish holatida xavfli holatning vujudga kelishi asosiy kuchlanishlar σ_1 , σ_2 va σ_3 ning nisbatiga bog'liq.

Hajmiy zo'riqish holatida bir o'qli cho'zilish (siqilish) da hosil qilingan chegaraviy kuchlanishlardan foydalanish uchun materialning xavfli holatga o'tish jarayoniga biror omilning ko'proq ta'sir qilishi haqidagi bir qator faraz taklif qilingan. Hisoblar uchun qabul qilingan farazlar *mustahkamlik nazariyalari* deb ataladi.

4.1. Eng katta normal kuchlanishlar nazariyasi. (birinchi mustahkamlik nazariyasi)

Eng katta normal kuchlanishlar nazariyasini XVIII asr G.Galiley taklif qilgan. Bu nazariyaga muvofiq materialning xavfli holati eng katta yoki eng kichik asosiy kuchlanishlar chegaraviy qiymatiga yetganda yuz beradi deb taxmin qilinadi, chegaraviy qiymat bir o'qli cho'zilish yoki siqilishga doir tajribalarda aniqlanadi.

Mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\sigma_1 \leq \sigma_{adm,t} \text{ yoki } \sigma_3 \leq \sigma_{adm,c}. \quad (4.1)$$

Ekvivalent kuchlanish asosiy kuchlanishlardan biriga teng:

$$\sigma_{red}^1 = \sigma_1 \text{ yoki } \sigma_{red}' = \sigma_3. \quad (4.2)$$

Mazkur mustahkamlik nazariyasining kamchiligi shundaki, unda boshqa ikki asosiy kuchlanishning ta'siri hisobga olinmaydi. Plastik materiallar uchun birinchi mustahkamlik nazariyasi tajribalarda tasdiqlanmaydi. Bu mustahkamlik nazariyasi ancha mo'rt materiallar (g'isht, beton, tosh) ning mustahkamligini tekshirganda qoniqarli natija beradi. Hozir bu usul qo'llanilmaydi.

4.2. Eng katta chiziqli deformatsiyalar nazariyasi. (ikkinchi mustahkamlik nazariyasi)

Bu nazariyani 1682 yilda E. Mariott yaratgan. Bu nazariyaga ko'ra, materialning xavfli holati bir o'qli cho'zilish yoki siqilish uchun qabul qilingan ma'lum chegaraviy qiymatli eng katta nisbiy chiziqli deformatsiyaga erishish natijasida yuz beradi deb taxmin qilinadi.

Mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishni oladi.

$$\varepsilon_{\max} \leq \varepsilon_{adm}. \quad (4.3)$$

Hajmiy zo'riqish holatida eng katta chiziqli deformatsiya algebraik kattalik bo'yicha ε_1 hisoblanadi.

Gukning umumlashgan qonunidan foydalanib, ushbuni olamiz:

$$\varepsilon_{\max} = \varepsilon_1 = \frac{1}{E} \left[\sigma_1 - \nu(\sigma_2 + \sigma_3) \right] \quad (4.4)$$

yo'l qo'yiladigan nisbiy deformatsiya:

$$\varepsilon_{abm} = \frac{\sigma_{adm}}{E}. \quad (4.5)$$

Mustahkamlik sharti uzil-kesil quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\sigma_1 - \nu(\sigma_2 + \sigma_3) \leq \sigma_{adm}. \quad (4.6)$$

Ikkinchi mustahkamlik nazariyasiga ko'ra, ekvivalent kuchlanish:

$$\sigma_{reb}^{11} = \sigma_1 - \nu(\sigma_2 + \sigma_3). \quad (4.7)$$

E. Mariott yaratgan mustahkamlik nazariyasi barcha uch asosiy kuchlanishni hisobga oladi. Biroq tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu nazariya ko'pchilik materiallar uchun yaramas ekan, shuning uchun u amaliy maqsadlarda deyarli ishlatilmaydi. Mo'rt materiallar uchun bu nazariya o'rtacha natijani beradi.

4.3. Eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasi. (uchinchi mustahkamlik nazariyasi)

Eng katta urinma kuchlanishlar nazariyasini 1773 yilda Sh. Kulon taklif qilgan. Bu nazariyaga muvofiq, materialning xavfli holati bir o'qli cho'zilishda aniqlangan chegaraviy qiymatli eng katta kuchlanishlar ta'sirida yuz beradi.

Mustahkamlik chegarasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\tau_{\max} \leq \tau_{adm}. \quad (4.8)$$

Hajmiy zo'riqish holatidagi eng katta urinma kuchlanish:

$$\tau_{\max} = \frac{\sigma_1 - \sigma_2}{2}. \quad (4.9)$$

Yo'l qo'yiladigan urinma kuchlanish:

$$\tau_{adm} = \frac{\sigma_{adm}}{2}. \quad (4.10)$$

Mustahkamlik sharti uzil-kesil ko'rinishda:

$$\sigma_1 - \sigma_3 \leq \sigma_{adm}. \quad (4.11)$$

Uchinchi mustahkamlik nazariyasi bo'yicha ekvivalent kuchlanish:

$$\sigma_{red}^m = \sigma_1 - \sigma_3. \quad (4.12)$$

Bu mustahkamlik nazariyasi plastik materiallar uchun o'tkazilgan tajribalarda juda qulay kelgan. Biroq u mo'rt materiallar hisoblarida yaramaydi. Bu nazariyada materialning mustahkamligiga ta'sir qiladigan o'rtacha qiymatli asosiy kuchlanish σ_2 ta'siri hisobga olinmaydi.

4.4. Shakl o'zgarishi energiyasi nazariyasi.

(to'rtinchi mustahkamlik nazariyasi)

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni hisobga olib, 1904 yilda M. Guber shakl o'zgarishi energiyasi nazariyasini taklif qiladi. Bu nazariyaga ko'ra, materialning xavfli holati shakl o'zgarishidagi solishtirma potensial energiya materialning bir o'qli cho'zilishdagi chegaraviy qiymatiga yetganda yuz beradi deb taxmin qilinadi.

Mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishni oladi:

$$u_d \leq u_{adm,d} \quad (4.13)$$

Hajmiy zo'riqqanlik holatida shakl o'zgarishi solishtirma potensial energiyasi:

$$u_d = \frac{1+\nu}{3E} (\sigma_1^2 + \sigma_2^2 + \sigma_3^2 - \sigma_1\sigma_2 - \sigma_1\sigma_3). \quad (4.14)$$

Chiziqli zo'riqqanlik holatida shakl o'zgarishi solishtirma potensial energiyasining yo'l qo'yiladigan qiymati:

$$u_{adm,d} = \frac{1+\nu}{3E} \sigma_{adm}^2. \quad (4.15)$$

Ba'zi o'zgartirishlardan so'ng mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\sqrt{\sigma_1^2 + \sigma_2^2 + \sigma_3^2 - \sigma_1\sigma_2 - \sigma_2\sigma_3 - \sigma_1\sigma_3} \leq \sigma_{adm}. \quad (4.16)$$

Bu nazariya uchta asosiy kuchlanishni hisobga olgani uchun uchinchi nazariyaga nisbatan ancha aniq natijalarni beradi. Bu nazariya plastik materiallarni hisoblashda keng qo'llaniladi, lekin mo'rt materiallar uchun yaramaydi.

4.5. Chegaraviy zo'riqqanlik holati nazariyasi.

(beshinchi mustahkamlik nazariyasi).

Chegaraviy zo'riqqanlik holati nazariyasini XX asr boshida O. Mor taklif qilgan. Bu nazariyaga ko'ra, hajmiy zo'riqqanlik holatida materialning mustahkamligi eng katta va eng kichik asosiy kuchlanishlar qiymati va ishoralariga bog'liq. O. Morning mustahkamlik nazariyasi uchinchi mustahkamlik nazariyasini umumlashtiradi va materialning cho'zilishi va siqilishiga bo'lgan har xil qarshilikni hisobga oladi.

Mustahkamlik sharti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\sigma_1 - \sigma_3 k \leq \sigma_{adm} \quad (4.18)$$

